

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

FERUZ ISLOMOV

HAYKALTAROSHLIK

*Kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun
o'quv qo'llanma*



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2007

„Haykaltaroshlik“ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan fan bo'lib, uning maqsadi malakali ta'mirlovchi- rassom mutaxassis kadrlar tayyorlash haykaltaroshlik haqida umumiy ma'lumotlarni o'rganishga qaratilgan. Mazkur fanni o'qitishdan maqsad, o'quvchilarga haykaltaroshlikning kelib chiqishi, rivojlanishi va shakllanishi, turlari, janrlari, unda ishlatiladigan xomashyolar va mehnat qurollari, ulardan to'g'ri foydalanish haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari, ularning bilim doirasini kengaytirish va egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarga qulay va tushunarli bo'lishi uchun darstlikka haykaltaroshlikka oid ko'pgina rasmlar kiritilganki, ular fanni o'zlashtirishga yordam beradi.

Taqrizchilar: San'atshunoslik ITI, Tasviriy san'at bo'limi ilmiy xodimi **D. Panjiyev**, MRDI haykaltaroshlik kafedrasi mudiri, haykaltarosh **U.Kuryazov**, A.A.Xo'jayev nomidagi Respublika Dizayn kolleji „Tasviriy san'at“ kafedrasi mudiri, haykaltaroshlik fani o'qituvchisi **R. Yermetov**.

10 33641
391

I 49030030000 — 121 Qat'iy huyurtma, 2007.
353(04) — 2007

ISBN 978-9943-02-101-3

© „O'qituvchi“ NMIU, 2007.

2002/04 Alisher Navciy nomidagi
AOD&2 O'zbekiston Mh.

KIRISH

Yo‘lda ketayotganimizda, shahardagi xiyobonlarda, markaziy maydonlarda, metro bekatlarida, bog‘larda turli mavzuga bag‘ishlangan haykallar namunalariga duch kelamiz. Ularning namunalari xonadonlarimizda chinni va fayans haykalchalarda, suyakdan yasalgan maishiy shakllar va xalq sopol o‘yinchoqlarida o‘z ifodasini topgan.

Haykaltaroshlik o‘zi nima, uning turlari, janrlari maxsus xususiyatlari qanday? Uning ijtimoiy va estetik ahamiyatlari nimadan iborat ekanligini mazkur qo‘llanmada ochishga harakat qilamiz. Albatta, bu ma’lumotlar umumiyligi, qisqa bo‘lsa-da, haykaltaroshlikka qiziqishni kuchaytirib, chuqr izlanishlarga murojaat qilishga undaydi, degan umiddamiz.

Haykaltaroshlik insoniyat tarixi taraqqiyotining barcha davrlarida shakllanib, rivojlangan. U barcha turlar va janrlarda dunyoning barcha davlatlarida hozirgacha mavjud bo‘lib, rivojlanib bormoqda. Haykaltaroshlik bizni yo‘qolib borayotgan xalqlar hayoti bilan tanishtiradi. Odamlar tuyg‘ulari va ishonchlarini, Qadimgi Amerikada yashagan olmeklar, inklar, mayya aholisidan qolgan ulkan tosh gavda va bo‘rtmalar, geografik tarxlarda umuman yo‘qolib ketgan G‘arbiy Afrika davlati Benin madaniyati — suyak o‘ymakorligi va bronzadan ishlangan badiiy quymalari, yurtimizning qadim davrlaridagi hayoti va madaniyatiga doir arxeologik topilmalari — quyma va yasama (lepka) haykalchalar, frizlar, ulkan haykallar jahon haykaltaroshligi namunalaridir.

Boshqa san‘at turlari kabi, haykaltaroshlik ham doimiy rivojlanishda. Haykaltaroshlik haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, arxeologik topilmalar san‘at tarixini kundan kunga yangi ma’lumotlar bilan boyitmoqda.

Ushbu qo‘llanmada haykaltaroshlikka doir barcha qirralarni to‘liqligicha ochib berishning iloji yo‘q. O‘quvchilar uning beqiyos xilma-xilligini his qilishlari, anglashlari, tushunchaga ega bo‘lishlari, biz uchun muhimdir. Qo‘llanmadan san‘atning „Haykaltaroshlik“ yo‘nalishiga qiziquvchilar, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

HAYKALTAROSHLIK HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Haykaltaroshlik — inson faoliyatining eng qadimgi turlaridandir. Qadim zamonlardan odamlar o'zlarini o'rab turgan olamni aks ettirishga, o'z xayollari va tuyg'ularini badiiy obrazlarda yetkazishga intilardilar.

Bizning kungacha turli davr va xalqlarning ajoyib haykaltaroshlik asarlari namunalari yetib kelgan. Ibtidoiy odam quroq bilan qoyalarda hayvon va qushlarni, ov sahnalarining tasvirini chizgan va yo'nib chiqqan, aylana hajmli gavdachalarni o'yan. Kurrayi zaminimizning barcha hududlarida „Paleolitik Veneralar“ deb atalgan ayol gavdachalari qazib olingen (1- rasm), ularning ayrimlari miloddan avval, yigirma besh ming yil ilgari yaratilgan. Bu haykalchalarda ko'tarinkilik yoki ayollik nafosat izlari umuman yo'q: ularning sonlari keng, qorinlari katta, ko'kraklari xaltasimon; bu ayollar ko'p tug'ishga va og'ir mehnat qilishga qodir. Bu qomatchalarning kelib chiqishi, qadimdan hayot boshlanishi, onalik kuchi, hosildorlik ilohlariga sig'inish bilan bog'liq. Bu haykalchalar keyingi barcha butlar singari qadimgi odamlar uchun ilohlashtirilgan edi.

Haykaltaroshlik kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha davrlarida unga hamroh bo'lган. Xalqlar kelishgan — ketishgan, davlatlar taraqqiy etgan va vayron bo'lган, lekin san'at qolgan. Tarix, turmush, o'tgan odamlarning qiyofasi haqida ko'pgina ma'lumotlar san'at tufayli orttirilgan. Ko'pgina tarixiy voqealar, jang haqidagi tafsilotlarni mana shu bo'rtma haykallardan o'rganamiz.

Ayrim ko'hna bo'rtmalarni tarixiy hodisalar bilan solishtirish mumkin. Lekin bu solishtirishlar ham yetarli emas. Haykal nafaqat bo'lib o'tayotgan voqealarni, balki shu hodisalarning ruhini ham qayta tiklaydi. U nafaqat xalqlar tarixi, balki ularning ruhiy hayotini kuzatishga imkon beradi.

Qadimda haykaltaroshlik hukmronlik kuchi va ulug'vorlik ramzi bo'lган. Bu ma'noda Fir'avn hukmronligini olqishlashga qaratilgan Misr san'atini olishimiz mumkin. Misrda ko'p ming yillar

ilgari piramida va ehrom inshootlaridan tashqari toshda xalq hayoti va turmushi haqida bayon etuvchi bo'rtmalar yo'nilgan. Ehrom tarzi Nil daryosi tomonga yuzlangan, unda buqa va qo'y kallali (Amon xudosiga bag'ishlangan, mifologik jonivorlar) sfinkslar bilan bezatilgan xiyobon bo'lgan. Ehrom tarzları ikki an'anaga tayanib, kirish qismi ikkita ustunsifat minoralari o'rtasida joylashgan. Kirish qismi va pilonlar o'rtasidagi bo'rtma yarimaylana shaklida karniz bilan bezalgan. Pilonlar oldida fir'avnlarning ulkan haykallari va obelisk o'rnatilgan. Bo'rtmalarda boshqa gavdalarga qaraganda, ularning qomatları ancha katta hajmlarda o'yilgan. Ularning haykallari juda ham ulkan bo'lganligi uchun, mahobatliligi bilan butun borliqni salovati bosadi, bamisoli inson emas, balki qandaydir mislsiz mavjudotlar singari. Qoyatoshli ehromlarda Fir'avn gavdalari zal ravoqlarini ko'tarib turganlar.

Ko'hna haykaltaroshlik fuqarolikdan tashqari, dinga ham xizmat qilgan. Turli shakllarda u xalqni itoat qilishga, mavjud tartibga aralashish harakatidan voz kechishga da vat etardi. Osiyo san'atiga murojaat qilamiz.

Hind va Xitoy ko'hna ehromlarida va g'orli monastirlarida juda ko'p Budda, buddaviy avliyolar va monaxlar haykallari tasvirlari saqlanib qolgan (2- rasm). Ehrom va g'orlarning devorlarida toshga yo'nilgan yoki loydan yasalgan, turli diniy sahnalarini va turmush tarzini tasvirlovchi bo'rtmalarni ko'rish mumkin. Inson tipajlari, xarakterlari, kayfiyatlarini beqiyos xilma-xilligini ko'rsatish, bu tasvirlarga xos. Ular shakllarning mahobatliligi, fantastik obrazlarning g'aroyibligi, haqqoniyligi bilan farq qiladilar (3- rasm).

Ossuriya shahrida bahaybat qo'rg'onlar bo'lgan. Ulkan darvozalar yonlariga odam boshli, burgut qanotli, buqa qomatli — „shedu“ haykallari o'rnatilgan (4- rasm). Yon tasvirga yana beshinchı qo'shilgan oyog'i bamisoli bir vaqtning o'zida, uni yurayotgan yoki to'xtayotganga o'xshatib yasalgan. Yaratuvchilarning fantaziysi tufayli paydo bo'lgan, ularda tabiatning kuch-qudratini gavdalan-tiruvchi va shoxni himoya qilishga undaydi. Bunday buqa yoki sherlar deyarli barcha saroy darvozalari yonlarida o'rnatilgan edi.

Ancha mukammal bo'rtma haykallar Nineviyadagi Ashshurbanapal saroyini (miloddan avvalgi 669—635- yillar) bezagan. Bu yerda, nafaqat, qomatlarni chiqarishda o'sib borayotgan jo'shqinlikda, kuchli va jonli chekankali lepkada, balki hayotni yanada

emotsional qabul qilish hissida ulkan mahorat ifodalangan. Uchib chopayotgan otlar, chavandozlar singari, g'ayratga, kuchga va shavq-zavqqa to'lgan. Rassomlar odamlar tomonidan shafqatsiz qirilayotgan hayvonlarning azoblanayotganini ko'rsata olgan. Ohularning, yovvoysi otlarning va sherlarning halok bo'lish manzarasi fojiali ko'rsatilgan. Bo'rtmaning tekis zamini ko'p ma'noli. Kuchli va g'ururli sher azoblanib og'zidan qon qusmoqda (5- rasm).

Buddaviylar plastikli timsol sifatida Buddha obrazini yaratdilar: qo'zg'almas gavda, qo'li sajdada, yarimochiq ko'zlar, yuzi chuqur xayolga cho'mganligidan dalolat bermoqda — uning haykalida hamma narsa bu osiy dunyodan yiroqlashgani, bu dunyodan ketganligi, hammasi o'z fikr-xayollariga cho'mishga undaydi. Hindiston brahmanlari (oliy tabaqali kishilar) „olam ezgulik va yovuzlik, kuchlar o'rtasida doimiy kurash maydoni hisoblanadi“, degan ta'limni ishlab chiqqanlar: brahmanlar ehromlari, ilohlar va devlar janglari haqida so'zlovchi, haykali va bo'rtmali o'zgacha galereyalari bo'lgan. Ularning asosiy ilohi bahaybat Shiva bo'lgan — u koinotni yaratgan va uni boshqargan va hayot charxpalagini tugatayotgan hamma narsani vayron qilgan. Uning eng mashhur tasviri — Elefant orolidagi (Bombey yaqinida) qoyali ehromda uch siymoli haykal; Shiva — yaratuvchi sokin va bosiq, u bamisolli bo'lib o'tadigan narsalar haqida fikr yuritmoqda; Shiva — tartibni saqlovchi nilufar gulga mahliyo bo'lib, uning nozik go'zalligini himoya qilganday; Shiva — vayron qiluvchi sovuq va qahrla, u barcha koinot borliqlari bilan band, odamlar tashvishi va musibatlari bilan ishi yo'q. Bu siymolarga qarab, odam o'zining qanchalik kuchsizligini anglashi lozim, dunyoda hamma narsa abadiy, aql bovar qilmaydigan qonunlar bo'yicha kechayotgan, unda hech narsani o'zgartirish mumkin emas.

Qadimgi davlatlarda haykaltaroshlik bitta yo'nalishda rivojlangan. Bu ularning hammasi bir xil bo'lgan degani emas. Aksincha, uning xilma-xilligi cheksiz.

Har bir xalqning ko'lam, jo'shqinlik (dinamika), obraz haqida tushunchasi, o'zining betakror badiiy tili mavjud — ular milliy an'analar va xarakterlar, xalqlar hayotini his etish va ularning hayotini, tabiatini va tarixini tushinish bilan belgilanadi. Shuning uchun geografik koordinatlar va din bo'yicha yaqin bo'lsa ham, aksariyat xalqlar san'ati bir tusli bo'lishi mumkin emas.

Boshqa san'atlar singari haykaltaroshlik ham doimiy rivojlanishda. U o'z xalqi hayotida hamroh bo'lib, xalq qanday tarixiy hodisalarini va siljishlarni boshdan kechirsa, bu kechinmalar haykaltaroshlikda o'z aksini topadi.

San'at tarixidan misollar tariqasida Yevropa haykaltaroshlik san'atini keltiramiz, chunki u bizga tanish va tushunarli. Rus haykaltaroshligi keyingi sovet va zamonaviy haykaltaroshlik qonunlari bo'yicha rivojlangan, uning ajralmas qismi bo'lgan. Yevropa haykaltaroshlik davrlari haqida so'zlaganimizda, bizga tanish bo'lgan jahon san'at asarlariga qaytamiz, chunki ular plastik unsurlar tilini, xronologik tizimni, Yevropa badiiy fikrlar rivojini kuzatishga, u yoki bu davrlarning xususiyatlarini tushunishga imkon beradi.

Yevropa haykaltaroshlik tarixi antiqa davrdan, inson badiiy faoliyatining eng ahamiyatli davridan, ya'ni Yunon-Rim madaniyatidan boshlangan.

Yunon klassikasi haykaltaroshlik uchun eng unumдор даврлардан бо'лган. Бу даврда антик сан'атning асосиј масалалари аниқ намоён бо'лган ва Мироннинг „Disk irg'ituvchi“ (6- рasm), Фидиининг „Afina haykali“ (7- rasm) ва „Parfenon barelyefi“ (8- rasm), Лисиппнинг „Nemey sheri bilan olishayotgan Gerak“ (9- rasm) ва бoshqa mashhur me'morlarning ajoyib haykallari ko'pchiligimizga tanish.

Yunon san'atining yorqin qirralari shundaki, ular tarixda birinchi bo'lib, oddiy insonni olqishlashga, tasdiqlashga qaratilgan edi. Haykaltaroshlar ilohlarni tasvirlaganda ham, ularga inson qiyofasini bahshida etganlar va ularni oddiy hayotiy jarayonlarda — bahsda, orom olganda, jangda ko'rsatishga harakat qilganlar. Hukmdorlar haykaltarosh tasvirida kam uchraydi, chunki avvalo bunday olqishni qozonish lozim bo'lgan. Yunon haykaltaroshligida go'zal, kuchli, uddaburon, garmonikalı rivojlangan inson tasviri асосиј о'rnini egallaydi. Yunonistonda inson gavdasining mukammal plastikasi — uning oliyanob mutanosibligi, qismlarning funksional o'zaro bog'liqligi haqida birinchi nazariya yaratilgan edi. Rassomlar amaliyotda bu tushunchani yanada kengaytirganlar: ular uchun gavda go'zalligi ruh go'zalligi, ko'ngil ravonligi va axloqiy ko'tarinkilik ifodasi bo'lgan. Yunonlar tasavvurida jismoniy va ruhiy muvozanat o'zaro mutanosib, teng bo'lishi kerak.

Ko'pgina Yunon haykallari, ayniqsa, sport musobaqalari g'oliblari, mavjud kishilar timsolida bajarilgan. Ular modellarining xarakterli xususiyatlarini umumiylashtirganlar, ruhlantirganlar, olyjanoblashtirganlar, ularni plastikali ideallashtirganlar. Ellin o'spirinlari haykaltaroshlar yaratgan haykallarga o'xshashga harakat qilardilar.

Haykal maydonlarda, stadionlarda, dengiz qirg'oqlarida va tog' qoyalarida „yashagan“. Plutarxning tasdiqlashicha, Afinada tirik odamdan ko'ra, haykallar ko'proq bo'lgan. San'at asarlariga hurmat va ehtirom bilan qaraganlar: Fidiy tomondan yaratilgan 17 metrli Zevs haykali yetti olam mo'jizasi deb qabul qilingan edi.

Yunon san'ati yaqin Shimoliy Afrika va Osiyo davlatlariga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyo antik me'morchiligi misolida haykaltaroshlik va rangtasvirming uzviy birligini ko'rishimiz mumkin. Ularga Xalchayon saroyining katta xonasi haykallar bilan bezatilganligi, Tuproqqal'a, Dalvarzintepa va boshqa saroylarning devoroldi haykalli kompozitsiyalari kiradi.

Rim haykali ancha sovuqqon va rasmiyatli bo'lgan (10—11-rasm), ular uchun inson-fuqaro ideali begona bo'lgan, ular monarch va jangchilarni olqishlaganlar. Ularga bag'ishlab haykallar ishlangan (12- rasm), yodgorliklar o'rnatilgan (13- rasm), ular haqida so'z-lovchi bo'rtma relyeflar juda keng tarqalgan edi (14- rasm).

Antik san'ati fojiali yakunlandi. Marmar haykallarni vayron qilganlar, bronzani eritganlar. Parfenondan haykalli frizlar uloqtirilgan. Afina haykali butparastlik timsoli sifatida yo'q qillingan (7- rasmga qarang), Zevs haykali olovda kuyib ketgan.

O'rta asrlarda (V—XV asrlar) butparastlik o'rnini xristianlik egalladi (15- rasm). Bu paytda jamiyat kuchli cherkov ta'siri ostida bo'lgan. Antik haykaltaroshlik ancha vaqtgacha „to'xtagan“, uning yangi ko'tarilishi Germaniya va Fransiyada XI—XV asrlarda yorqin na'moyon bo'lgan edi.

O'rta asr haykaltaroshligi namunalari maydonlarni tark etib, ehromlarga joylashgan. Roman ehromlarida haykal peshtoqlarda joylashgan. Gotikada uslubida haykallar bino bilan uyg'unlashgan: binoga kirishda, peshtoqlarda, darvozalar oldida, karniz va kontrforslarda haykallar qad ko'targan, ba'zida haykal bezaklari zichligidan me'moriy shakllar ko'rinxay qolardi (16—17- rasm).

Haykaltaroshlikdagi diniy mavzular, mavjud obrazlar, hayvonlar va ximerlar (mifologik mavjudotlar) bilan birlashib ketgan. Gotika haykaltaroshligi o'zida tig'iz emotsiyal kuchlanishni ifodalaydi: tomoshabin hayotning ruhiy qirrasi — eng qiymatli ekanligini tushunish va his etishi lozim.

Gotika haykaltaroshligi o'rnnini Uyg'onish davri haykaltaroshligi egalladi. Qomatlar yana qon va jonga ega bo'ldi, bardam va hayot quvonchiga qaytdi. Gotika haykaltaroshligi yildan yilga mavzular doirasini kengaytirib, hayotiy voqealarga va inson xarakterlarini haqqoniy tasvirlashga qiziqish ortib borgan edi. Uyg'onish cherkovli gotikaga qarshi chiqmagan, aksincha, rassomlar cherkov uchun ko'p va ishtiyoq bilan ishlaganlar, lekin boshqacha shaklda, diniy mavzularni hayotiy ko'rsatib, unda insonni ulug'lab, olam go'zalligi alohida belgilagan.

Uyg'onish davri san'ati (XIV—XVI asrlar) qaytadan shaharni haykallar bilan bezab, Yevropaning tarixiy yuksalishida bir qismi bo'ldi. Uyg'onish rassomlari universallar — me'mor, rangtasvirchi, haykaltarosh hammasi bitta ustada mujassam bo'lган. Ular anatomiya bilan qiziqishgan, odam tanasi mutanosibligi va chiziqli kelajak nazariyasini yaratdilar.

Mikelanjelo, Donatello, Verokko, Giberti hayot butkulligiga, ongning qudratiga, inson qobiliyatining cheksizligiga ishonganlar. Ular nafaqat antik an'analarni davom ettirganlar, balki ko'pincha qaytadan fikr yuritganlar. Agar eski ustalar odam taqdир taqozosiga qarshi chiqolmagan bo'lsa, uyg'onish rassomlari inson o'z hayotining egasi, ijodkor bo'lган — hamma narsa o'zining shaxsiy xislatlari: energiyaga, qobiliyatiga, jasoratiga bog'liq bo'lган. Ularning haykallari qahramonona xarakterga ega — buning yorqin misoli tariqasida Mikelanjeloning „David“i (18- rasm), ichki g'ayratlangan va shu bilan birga, barqaror g'alabaga ishonch tuyg'usini keltiradi.

Real hayotni qayta tiklashga o'tish, san'at ustalarining bilimga intilishi sababli bo'ldi. Ular gotikaga xos gavdalarning o'zgartirilishi va nomoddiylashtirilishidan voz kechdilar va tirik odamlarga, ularning siy whole siga va ruhiyatiga yuzlandilar (19- rasm). Bunda ayniqsa Donatello tanildi: u payg'ambarlar haykallarini o'zining florensiyalik fuqarolarini model tariqasida bajardi; Mariya Magdalenani asosan yosh, go'zal emas, balki ro'za tutayotgan va tilovat qilayot-

gan, tishsiz kampir sifatida tasvirlagan. Uning uchun hayot rostgo'yligi, go'zal afsonadan afzal bo'lgan.

Italiyada boshlangan Uyg'onish Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Slovakiya va Polshaga kirib keldi. Antik ta'siridan yiroqlashgan Shimoliy Uyg'onish, italiyaliklarga qaraganda, cherkovga yaqin bo'lgan (haykaltaroshlar qishloqlarda ishlab, ko'p hollarda gotika an'analariga rioya qilib, mehroblar uchun asarlar yaratganlar), lekin insonga qiziqish, unga ishonch, uning tuyg'ularini to'liq va har tomonlama ko'rsatib berish ham o'z kuchini yo'qotmagan (20- rasm).

XVII—XVIII asrlarda Yevropada barokko hukmronlik qilgan. Uyg'onish davrining bosiqligi va maqsadli aniqlik, katolik dindorlari va absolutizm davri dvoryanlari uchun mos kelmay qoldi. Uning o'rniga tantanavor, ulug'lashtirilgan va bahaybatlilik uslubi kirib keldi. „Barokko“ atamasi, italyancha barokko, ya'ni „jimjimador“, o'z ma'nosiga batamom to'g'ri keladi.

Barokko sujetlarning nafisligiga, shakllarning yuqori bezalishiga, kompozitsiyalarning jo'shqinligiga, murakkab va dramatik tuyg'ularni ko'rsatishga intilardi. Personajlarning yuzlari va gavdalari o'ta go'zal, harakat va ishoralari nafis, latofatli. Borliq uchun buning hammasi juda ham go'zal, dramatizm uchun bu juda ham nozik. Haykalda muhimi shakl va mazmun ham emas, balki uning tashqi ko'rinishi bo'lgan (21- rasm).

Barokko uslubidagi yirik haykaltaroshlardan biri italiyalik Lorenzo Bernini bo'lgan (1598—1680). U marmar, sopol va bronzaga eng mukammal ishlov berish texnikasini egallagan, shakl jihatidan eng murakkab kompozitsiyani bajara olgan, unga nozik yoki eng jo'shqin tuyg'u baxsh eta olgan, lekin uning ishlarida go'zallik o'z-o'zidan kifoyalangan ahamiyat kasb etdi, birdan bir maqsad bo'lib qoldi (22—23- rasm).

Davrlar o'zgargan, hukmronlik uslublari o'zgargan. Quyuq jimjimador haykaltaroshlik ko'rkmaglii o'rniga o'ylangan jiddiylik, saxiylik o'rniga chegaralanish, me'yor tuyg'usi kirib keldi. Yevropada markazlashgan milliy monarxiya tashkil bo'lgan davrda klassitsizm hukmron bo'ldi. Klassitsizm yuqori san'at namunasi deb, antik davr san'atni ovoza etdi, rassomlar antik davr tarixi mavzulariga, antik afsonalariga va injilga murojaat etganlar. Milliy

tarixiy mavzularni ham antik davrda o'tayotgandek, afsona yordamida bayon etishga harakat qilardilar.

Klassitsizm namoyondalari haykal ong qonunlariga bo'y-sungan, tuyg'ular bo'yicha vazmin, fikran teran bo'lishi lozim deb hisoblaganlar. Ularning tushunchasida asosiy qonuniyat — insonning asosiy fazilatlaridan burch tuyg'usi, yagona muhim g'oya davlat g'oyasi bo'lgan. Haykaltarosh haykal yoki yodgorlikni yaratayotganda o'z modellarida olivjanoblikni, ideallashtirilgan qirralarni yaratishga harakat qilgan.

XIX asrning 20—30- yillarida klassitsizm o'rnini romantizm egalladi. Jamiatning taraqqiy sinflari monarxiya tizimini rad etib, mavjud borliqqa qarshi qo'zg'olonlar ko'tarib, uni o'zgartirishni orzu qilganlar. Bu, ayniqsa, Fransiya va Rossiyada yorqin namoyon bo'ldi.

Bu davrga xos romantik haykal Fransua Ryudanining (1784—1855) „Marselyeza“ asari hisoblanadi (24- rasm). Fransuz revolutsiyasi qo'zg'olonchilari shiddat bilan maqsad sari intilmoqdalar. „Hurriyat ma'budasi“ ularning tepasida intilib uchmoqda; bir qo'li qilichni ushlamoqda, boshqasi yuqoriga ko'tarilib, bamisolari harbiylarni jangga chaqirmoqda.

Tanglik vaziyat, obrazlarning yuqori hissiyotliligi, harakat va ishoralarning jo'shqin harakati — bularning bari romantizm uchun majburiy bo'lgan. Rassomlar voqealarni tiklaganda, ular o'ta g'aroyib, aql bovar etmaydigan qilib ko'rsatishga intilganlar. Uлarni noaniq, erkin tasvirlashsa-da — muhimi ularning zavq-shavq jo'shqinligini tasvirlash, tomoshabin taassurotiga ta'sir etish, ularda oddiylikka nafrat uyg'otishga qaratilgan.

Vaqt o'tishi bilan mavhum qahramonlik borliqni chuqur o'rganish bilan almashadi. Asosiy san'atga talab rostgo'ylik bo'lib qoladi — rassomlar nimani ko'rsa, bilsa, nima bilan to'qnashsa, shuni tasvirlashga tushadilar. Realizm tug'iladi — ushbu uslub, tasviriy san'atning eng ilg'or uslublaridan bo'lib qolgan.

Hayot hodisalarini haqqoniy tasvirlash doim mavjud bo'lgan. U antik davrda ham, uyg'onish davrida ham, klassitsizm davrida ham uchragan: Gudon, klassik portretning tashqi shartlilagini saqlab (25- rasm), deyarli o'z personajlarining ichki olamini juda haqqoniy ochib bergan — ayyor va sodda, kulgili va soddadil odamlarni ko'rsatgan (26- rasm). Lekin realizm — bu faqat tashqi

aniqlik emas, balki ekspluatator jamiyatining qarama-qarshiligini fosh qilish, demokratik ideallarni tasdiqlashdir. Realist- rassomlar o'z ijodlarida jamiyat va xalq hayoti sahnalarini ifoda etganlar, og'ir mehnat bilan shug'ullangan odamlarning, dehqonlarning siyosini yaratganlar. Shu tariqa ko'pgina turli-tuman ziyolilar portretlari paydo bo'lgan.

XIX—XX asr chegarasi haykaltaroshlik rivojida eng muhim davr bo'lgan. Yevropada haykaltaroshlikning rivojlanishida Fransiya muhim rol o'ynagan. U paytda Roden, Burdel, Mayol nomlari mashhur bo'lgan. Roden nafaqat insonning jismoniy tuzilishini, balki uning ichki holatini to'liq va har tomonlama ochib berishga erishgan (27—28- rasm). Burdel portret va haykallarga mahobatlikni, dramatik kuchlanishni va emotsiyal jo'shqinlikni kiritgan (29- rasm). Mayol gavdalarda inson go'zalligini yuksak tuyg'ularini va tabiatning abadiyligi g'oyasini biriktirishga intilgan (30- rasm).

Rossiyada XVIII—XIX asrning mashhur haykaltaroshlari F.I.Shubin (32- rasm), M.I.Kozlovskiy (33- rasm), I.P.Martos (34—35- rasm), F.F.Shedrin, B.I.Orlovskiy va boshqalar tomonidan mahobatli, bezakli asarlar va portret haykallari yaratilgan edi. So'ng realistik an'analarda Golubkina, S.T.Konenkov (36- rasm), Matveyev va ko'pgina boshqa haykaltaroshlar ijod qilganlar. Golubkina asarlarida insonga ishonch va ulkan insoniylik yorqin ifoda etiladi: har bir asarida u inson ruhining go'zalligini ochib bera olgan. Konenkov rus majusiyligining yarimertakli va yarimafsonaviy o'rmon va uy ilohlarini yog'ochda aks ettirib, rus xalq o'ymakorligi plastikasini ijodiy ishlab chiqqan. Matveyev ajoyib klassika qonuniyatlarini tiklashga harakat qilgan, mahobatli umumlashtirish usullarini boyitgan — asarlarning turli gavdalari, eng kichkinalari ham o'zida yuksaklikni ifoda etgan.

Bu ustalarning ijodida o'tgan davr madaniyati, san'atda yangi yo'llarning izlanishi bilan organik birikkan. Bu izlanishlar XX asrda kuchaygan. Bu asr ulkan ijtimoiy o'zgarishlar, G'arbiy Yevropa haykaltaroshligi uchun juda murakkab va mazmunga boy bo'lgan.

Bu davrga kelib ko'pgina turli badiiy oqimlar paydo bo'lgan. Haykaltarosh-kubistlar (rumin Konstantin Brinkushi, 1876—1957) buyumlarni oddiy geometrik hajmlarga: kub, silindr, konuslarga ajratganlar; ular shaklni har tomonlama tahlili yo'lida,

ya'ni ko'rinaridigan tarkibiy unsurlariga ajratish, uning tub mohiyatini yoritishga harakat qilganlar. Haykaltarosh- ekspressionistlar (insonning ichki dunyosini yorituvchilar, nemis Erns Barlax) yuqori ifodalanishga intilganlar, o'z ishlariга plastik giperbolalar va ramzlarni keng qo'llab, o'zining gavdalar vazniga yuqori jo'shqin harakatni va girdobli ritmik intilishni baxsh etganlar; ular uchun olam dramatik voqealarga va qarama-qarshiliklarga boy. Boshqalar arxaikaga intilganlar, ibridoiy soddalikka nazar tashlab, ulkan yaxlit insoniylik, umumlashtirish haqida orzu qilganlar.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari ko'pgina san'at namoyondalarida tushkunlik va taqlidchilik kayfiyatini keltirib chiqardi. Fashizmga nafrat, tinchlik uchun kurash, ko'pgina jahon rassomlarini birlashtirdi, ushbu mavzuga bag'ishlanib haykaltaroshlik asarlari yaratildi: italiyalik Djakomo Mansuning Rimdag'i Muqaddas Pyotr sobori darvozalaridagi fashizmga qarshi bo'rtmalarida, germaniyalik Fris Kremerning „Buxenvald mahbuslari qo'zg'olonchilariga“ (36- rasm.) nomli asarida, finlandiyalik Vaynyo Aaltonenning „Tinchlik“ haykalida xalqlar do'stligi g'oyasi mujassamlashgan (32- rasm.)

Ko'pgina sovet rassomlari ushbu mavzuga atab, hammaga mashhur qator asarlarni yaratganlar. Ko'pgina yodgorliklar yaxlit me'moriy-haykaltaroshlik majmuasi sifatida yechilgan. Leningrad qamalida vafot etgan shahar tinch aholisi va himoyachilariga; Volgogradda — Stalingrad jangi qahramonlariga, Latviyada Salaspilsda — fashizm terrorchilari qurbanlariga; Belorussiyada Xatin qishlog'ida — tiriklayin yondirilgan aholiga bag'ishlangan me'morial yodgorlik majmualari yaratilgan.

Miloddan avvalgi III—I asrda O'rta Osiyo xalqlari san'ati-da ulkan ahamiyatga ega ko'pgina mahobatli haykaltaroshlik asarlari saqlangan. Bizga tanish bo'lган hamma mahobatli haykaltaroshlik yodgorliklari u davrdi me'morchilik bilan bog'liq bo'lган. Hujjalarga ko'ra, haykallar tosh, loy va shtukka (kir) bo'lingan. Tosh haykallar O'rta Osiyoning janubi-sharqida, Baqtriyada tarqalgan. Termiz yaqinidagi Ayrитомда topilgan ajoyib san'at asari hisoblangan buddaviylik ehromining haykallar bilan bezalgan tosh karnizlari hisoblanadi. Ayrитом haykaltaroshlik frizi ikki qator joylashgan akant barglaridan tuzilgan. Tepa qatordagi barglar sozandalar va gullar shodasini ko'taruvchilar qomatlari bilan takrorlangan. Arfachi — frizning eng yaxshi qomatlaridan biri

hisoblanadi. Yuzlari umumlashtirilgan, ammo realistik tasvirlangan. Hamma narsada badiiy turg'un an'ana, katta mahorat ko'rinih turibdi. Juda qashshoq badiiy vositalar orqali rassom, arfa sadolariga qulog tutayotgan musiqachi obrazini yaratdi. Ayrитом frizi ku-shon mamlakatining gullagan davriga qarashli bo'lib, miloddan avvalgi II—I asrga tegishli (33- rasm).

Loyli haykalchalarни Parfiya va Xorazm yodgorliklaridan bilamiz. Ulkan mahobatli haykallar Nisa shoh-saroyidan bizgacha vayronalarda yetib kelgan. Tuproqqal'a saroyidagi loy haykalchalar ancha yaxshi saqlangan.

Shoh saroyining tantanali zallarini bezab turgan, ko'pincha ma'lum ritmda takrorlangan pishmagan loydan haykallar baland bo'rtmada bajarilgan ko'pguruhli kompozitsiyalarni tashkil etgan. „Shohlar zalida“ devor bo'ylab supa oraligida alohida tokchalar va shaklli g'ishtlardan panjaralar joylashgan. Tokchalaryning har birida shoh haykali tasviri odam bo'yidan ikki barobar katta, oila a'zolari haykallari esa kichik hajmda bajarilgan. Shunday qilib, haykalli zal-ning bezagi xorazmshohlarning o'ziga xos portretli galereyasи hisoblanadi. Ta'kidlab o'tganimizdek, Ayrитом frizidagi musiqachilar tasvirida kalla haykallari shu davrning inson go'zalligi, ideal tipini namoyon etadi.

Milodning III asri. Tuproqqal'a haykallari, Xorazm Kushon hukmidan ozod bo'lib, yana mustaqil davlat bo'lgan davrga tegishli. Bu mahobatli asarlarni yaratgan rassomlar Xorazm davlatining buyukligini va kuchini ko'rsatishga intilganlar.

Bu davrdan bizgacha pishgan loydan haykalchalar, ko'p hollarda ayol ilohlarini tasvirlovchi kichik ilohchalar yetib kelgan. Bu haykalchalar Sug'd topilmalardan bizga ma'lum. Mahobatli haykal asosan bo'yalgan bo'lgan.

O'zbekiston 30- yillarda haykaltaroshlik, rangtasvir va grafika san'atidan ancha orqada edi.

30- yillar o'rtalarida O'zbekistonda ijodiy faol va maqsad sari intilgan haykaltaroshlar guruhi yetishib chiqdi. A.Kudryavseva, O. Korjinskaya, O. Rusakova, G. Massons, N.Krasovskiyalar shular jumlasidandir. Ancha keyin ular qatoriga Y.Kuchis qo'shildi. U Le ningraddagi badiiy bilim yurtini bitirgan. Bu haykaltaroshlar o'z asarlarida o'zbek ayollarini, mahalliy yoshlarni, davlat xizmatchilarni tasvirlaganlar.

U davrda korxonalarga va xiyobonlarga o'rnatilgan haykallar darajasi aytarli baland bo'lman, ular uzoq muddatga chidamaydigan ashylardan (gips) tayyorlangan bo'lib, hunarmandchilik darajasida bajarilgan.

30-yillar ko'rgazmalarida haykaltaroshlik juda kamtarin o'rinnegallagan. 30-yillar oxiriga kelib, O'zbekistonda madaniyatning rivoji, haykaltaroshlar oldiga jiddiy vazifalar qo'ydi. Bu vazifalar me'moriy majmualarga mahobatli-bezak haykallarini kiritish bilan bog'liq bo'ldi. Shu paytgacha orttirilgan mahorat O'zbekiston haykaltaroshligiga turli jamoa binolarini tarzlarini pardozlashda qatnashishga imkon yaratildi.

O.Korjinskaya 40-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarzi uchun betondan ishlangan ikkita ulkan bezakli guruh haykallarini yaratdi. Haykallarning chap tomonidagi guruhi mehnatni, o'ngdagisi ma'rifat timsolini anglatadi.

O'sha davrda Y.Strazdin va A.Ivanovlar, betondan mudofaa tashkiloti binosi tarzi uchun harbiy-chegarachi tasvirlangan bo'rtma haykalni yaratishdi.

„Toshshaharloyiha“ qoshida haykaltaroshlik ustaxonalari tashkil etilib, ko'pgina miqdorda, birinchi navbatda kanal quruvchilari uchun bezakli haykallar va barelyeflar ishlab chiqarila boshlandi.

Bog'lar, xiyobonlar dam olish oromgohlari gipsli haykallar bilan bezatila boshlandi.

Moskvada Xalqaro qishloq xo'jalik ko'rgazmasi povilyoni uchun Y.Kuchis o'zbek kolxozchi ayol haykalini va Katta Farg'ona kanali uchun ikki qomatli „Raqs“ kompozitsiyasini yaratdi, o'zbek raqsiga xos musiqiy ritmnинг qiyofasi aniqligi, shaklning plastikligi va tiniqligi bilan ajralib turibdi.

A.Ivanov o'zining ilk ijodini Katta Farg'ona kanali uchun juft qomatli „Quruvchi“ va „Quruvchi ayol“ haykalini yaratdi. Bezakli haykal majmuaning yaxlit qismi sifatida emas, balki unga tashqi qo'shimcha sifatida, me'moriy majmuadan mustaqil ravishda yaratilgan.

1940-yilda badiiy ko'rgazmada qator haykaltaroshlarning dastgohli asarlari: Y.Strazdinning „Ketmonchi“, Massonsning „M.Gorkiy portreti“ va A.Ivanovning portretlari namoyish etildi. Y.Strazdinning „Ketmonchi“ nomli portretida paxta dalalari mehnatkashi, tipik kolxozchi obrazi oddiy qilib yaratildi.

Urushdan keyingi davr O'zbekiston haykaltaroshligi uchun ijodiy kuch va imkoniyatlarni yig'ish davri bo'lib, ular 60-yilga kelib ko'lami keng ochildi. Rangtasvir va grafikadan orqada qolgan O'zbekiston haykaltaroshligi keyinchalik ancha tezlik bilan yuksaklikka intildi. Aynan shu davrda Leningrad, Moskva va Toshkent oliv o'quv yurtlarida professional ta'lim olgan milliy kadrlar haykaltaroshlar jamoasini to'ldirdilar.

1949-yilda Y.Kuchis rahbarligida Toshkent badiiy o'quv yurti o'quvchilar guruhi tomonidan bajarilgan, A.Navoiy kutubxonasi tarzida yozuvchilar portretlari o'rnatilgan edi. Betondan quyib chiqilgan bu bo'rtmalar hozirgi kun talabi darajasida bo'lmasada, o'z davriga xos san'at namunalari edi.

1954- yili A.Ivanov va F.Grishenkolarning Qoradaryo to'g'onida betondan quyilgan, ulkan „Mehnat g'alabasi“ haykal guruhi o'rnatilgan, mavzusi plakatl- rasmiy, bajarilishi bo'yicha sinchkov aniqlik bilan tasvirlangan.

Ijodiy faoliy dastgohli haykaltaroshlikda kuchaygan edi. A.Ivanov 50-yillar oxirlarida qator mehnat qahramonlari portretlar guruhini yaratdi. Bu asarlarda rassom portret ustasi sifatida namoyon bo'ldi. Haykaltarosh o'zining „Zvenochi ayol“ asarida O'zbekiston ayolining umumlashtirilgan obrazini yaratishga harakat qildi.

1945- yili O.Korjinskaya „Jangchi o'g'li bilan“ asarini yaratdi. Unda xalqning ulug' g'alabasi mavzusi aks ettirilgan. Respublika ko'rgazmasida qiziqarli ishlangan kompozitsion portret namoyish etildi. Unda ko'mir koni ishchisi Solnishko ko'mir qatlami zaminida aks ettirilgan. Bo'yalgan gipsli „Ko'mirli tus“ haykali muallifning fikrini tasdiqlaydi.

F. Grishenko o'z ijodini yog'ochda (A.Pushkin, Mirzo Ulug'bek, Hamid Olimjonning „Bunyod“ ertagi qahramoni kichik haykallarini) ishlashda sinaydi. U yosh avlod hayoti kuzatuvlardan, jonli janrchi muallif sifatida o'zini namoyon etdi. Uning „Hunarmand“ (1950), „Qushlar do'sti“ (1954) mavzulari va hayotiy yo'nalishi o'sha davrning rangtasvir janr kartinalari bilan hamo-hang.

50- yillar oxiriga kelib yosh avlodlardan milliy haykaltaroshlar M. Musaboyev va K.Salohutdinovlar ko'rgazmalarda qiziqarli asarlari bilan qatnashdilar.

1959- yili Hamid Olimjonga atab o'rnatilgan qabrtoshi A. Ivanov qalamiga mansub. O'zbek shoirining romantik obrazini ta'riflovchi yodgorlik ko'tarinkiligi bilan ajralib turibdi. Haykalning sifatli ashyodan bajarilganligi e'tiborli hol.

Toshkent xoreografiya o'quv yurti tarzidagi ikkita gorele'fli balerinalar haykallari N. Krimskayaning ilk asarlaridandir. Haykallar qomatlari sementda yo'nilgan bo'lib, devorga metall ankerlar bilan qotirilgan. Balerinalar obrazlarida N. Krimskaya mumtoz raqs go'zalligi, nozikligi, xoreografiya san'atining plastikligini tasvirlaydi. Balerinalarning „parvozli“ gavdalari bir-biriga qaratilgan, ularning qo'lidagi sharfi pirpirab, parvozni, nozik ko'lamdagi harakat hissini yaratayotgandek. N. Krimskayaning keyingi yirik ishi „Tinchlik“ haykalidir. U Moskvadagi O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasidagi haykaltaroshlik ekspozitsiyasida markaziy o'rinni egalladi.

60- yili N. Krimskayaning Namangan oromgohi „Chortoq“ uchun qator bezakli haykallarni („Raqqosa“, „Shifokor bola bilan“, „Uzum ko'targan ayol“, „Tinchlik“ haykallarining nusxasi ham joylashgan) yaratdi. Bu asarlarda ayol qomatining plastikasini tushunish o'zining chuqur tasdig'ini topgan. Keyinchalik N. Krimskaya kichik plastika janriga murojaat qilib, Toshkent chini zavodida, o'zbek qizlari haykalchalarini chinnidan yaratdi.

Janrli va portretli haykaltaroshlikda F. Grishenkoning yaratgan asarlari e'tiborlidir. Maishiy janr uning ijodida ahamiyatli o'rinni egalladi. „Yosh duradgorlar“, „Shaxsiy qurol“, „Dehqon ne'mati“ asarlari milliyligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning iste'dod kuchi fikrning puxtaligida, sinchkovligida, hayotning ko'p-qirraligidan ilhomlanishda namoyon bo'ldi.

60- yillarga kelib M. Musaboyev, D. Ro'ziboyev, A. Shaymurodov, A. Toirov kabi yosh milliy haykaltaroshlarning ijodi ko'zga ko'rindi.

Muxtor Musaboyevning „Cho'pon“, „Mirshab“ nomli asarlarda o'zbek xalqining keng ommasini namoyish etuvchi odamlari obrazlarini yaratishga harakat qilingan. Bu ikki asarlarning yorqin milliy aniqligi uning butun ijodi uchun xos xususiyat bo'lib qoladi. Musaboyevning eng yaxshi ishlaridan biri „Rubobchi ayol“ haykalchasiidir. Bu asarda muallif milliy xarakterli obrazlarni yaratishga intilganligi yaqqol namoyon bo'lgan.



60-yillar boshlarida o‘zining ishlari bilan badiiy ko‘rgazmalarda tanilgan yosh o‘zbek haykaltaroshi D.Ro‘ziboyev ijodi tomoshabintarda katta qiziqish uyg‘otdi. Uning ijodi ikki yo‘nalishda: bir tomondan, chuqur va tabiiy qiziqish milliylikka qaratilgan; ikkinchidan, jahon zamonaviy plastikasiga sinchkovlik bilan e’tibor, o‘zining har bir asarini maqsadga muvosiq jiddiy o‘ylab chiqishga intilish, hajm, plastika va rang sintezi sifatida D.Ro‘ziboyev — yog‘och, tosh, keramika, shamotda ijod qilmoqda. Uning mashhur ishlaridan, majnuntol novdalaridan yaratilgan „Saida“ byusti (1962) O‘zbekiston davlat san’at muzevida saqlanmoqda. Bamisolruhlantirilgan yosh qizning nigohi tabiat go‘zalligiga tikilib, ohanglariga quloq tutayotgandek, haykaltarosh yaxlitlikni saqlagan holda qismlarni mahorat, ulkan tuyg‘u bilan tuygan. D.Ro‘ziboyev yaratgan portretlarda shablon va sxemalardan uzoq, dadil plastik umumlashtirish mahorati va deyarli doim xatosiz xarakter hissini jalg qiladi. U haykaltaroshlikda rangga sezgir va e’tiborli, u yoki bu ashyoda ishlaganda, undan plastik va rang imkoniyatlari dan to‘liq foydalana olishni biladi. Ro‘ziboyevning ayrim asarlari Qadimgi Osiyo arxaik haykaltaroshlik san’ati tajribalarini ijodiy fikrlash ko‘zga tashlanadi.

A.Shaymuradov portret janrida shakllangan usta. U haykaltaroshlik mutaxassisligini Moskva Oliy Badiiy-san’at bilim yurtida egallagan. O‘qish davrida Moskva haykaltarosh ustalar brigadasida ishlab, marmarda ishlash mahoratini mukammal egallagan. A.Shaymuradovning „Hamza“ (1959), „Tur mush o‘rtog‘i portreti“, „O’spirin portreti“, „Maryam“ asarlari, uni yaxshi mutaxassis, intiluvchan ijodkor rassom sifatida tanitdi.

60-yillarning ikkinchi yarmida u Alisher Navoiy portret-byusti ustida tinmay mehnat qildi. Shaymuradovning haykaltaroshlikda yaratgan A.Navoiy siymosi hanuzgacha ulug‘ va buyuk shoir obrazi sifatida, eng chuqur obraz yechimi bo‘lib qoladi.

A.Toirov o‘zining ahamiyatlari ishlari bilan tanilgan. Teatr-rassomchilik institutini bitirib ish boshlagan bu ijodkor, dastgohli psixologik janrda haykallarni yaratish qobiliyatiga ega rassom.

X.Husniddinxo‘jayev asosan portret janrida ijod qilayotgan rassom. M.Musatboyev bilan hamkorlikda Zahiriddin Muhammad Bobur mahobatli byustini, gipsda mashhur darboz Toshkenboyev kompozitsiyasini yaratdilar. 70-yillarda Lunev bilan hamkorlikda

„Navoiy va Jomiy“ monumenti yaratildi. Bu san’at asari Samarqandda o’rnatalgan.

O’zbekistonda birinchi marta namoyish etilgan asarlarga ko’ra akademiyada tahlil olgan haykaltaroshlardan A.Ahmedov va T.Xoliqovlarning asarlari a’lo ba’ho bilan baholandi. Ahmedovning yog’ochdan ishlangan „Oftobjon“ asari, 1967- yil ko’rgazmasida tomoshabinlarni o’ziga jalb qildi. Keyingi yillarda A.Ahmedov ko’rgazmalarda portret asarlarini namoyon etmoqda.

60- yillar oxirida A.Boymatov, P.Chelishev, Y.Shapiro, M.Makarov, V.Klevansev, P.Ivanov, M.Ivanov, N.Fiodoridis kabi qator yosh haykaltaroshlar yetishib chiqdilar.

A. Boymatov maishiy sahnalarni ishlab chiqish ustasi. Uning eng yaxshi asarlaridan biri „Peshin“ (1967-yil), ikkiqomatli kompozitsiyasidir. Shuningdek, rassom portret janrida ham muvaffaqiyatli ijod qiladi. O’zining qishloq hayoti turli jahbalarini biliш, unda yodda qoladigan mehnatkash obrazlarini yaratishga imkon berdi.

P. Chelishev o’z ijodini („Suyigim“ 1957, „Go’dak“ 1958) kabi natural asarlaridan boshladi. Kattaqo’rg’onda o’rnatalgan, shoirona hayajonli, chuqur fikr singdirilgan Alisher Navoiy monumenti, uni jiddiy rassom sifatida elga tanitdi.

Y. Shapiro yangi va muhim mavzularni ko’tarishga, ular uchun mahobatli-umumlashgan yechimni topishga qodir ijodkor. Uning „Tamtam“ (bronza, 1962) milliy asbobini chalayotgan afrikalik obraqi — ifodali, yodda qoladigan. Gipsdan ishlangan — „Ketayotgan“ nomli haykalda jangchi kiyimida ketayotgan oddiy inson tasvirlangan. U bamisolli uzoq maqsadni ko’zlagandek. Uning qiyofasida xalq ongida urush va vayronalar asoratlari davri aks etgan.

Toshkentda vafot etgan Hindiston bosh vaziri La’l Bahodir Shastri yodgorligi ham Y. Shapiro qalamiga mansub. Haykaltarosh Shastri obrazida xushfe’l inson va demokratizm xislatlarini ifoda etdi.

Pavel Ivanov ijodi loy, tosh, yog’och, metall, keramikada ishonchli mavzular diapazonining kengligi bilan ajralib turadi. Bu rassomning qiziqishlari „Dala malikasi“ 1963, „Oftobga ro’para“ 1964, „Koinot“ 1965, misdan ishlangan triptixi va „O’zbek ayoli“ psixologik portretida o’z ifodasini topgan. Haykalga tabiiy ashyo go’zalligi g’oyasiga singdirilgan bir butun hajm, rang,

faktura, teksturasi sifatida qarash, bu rassomning mahoratli ijodi uchun xos.

P. Ivanovning eng ahamiyatli asarlaridan biri R.Nemirovskiy bilan hammulliflikda ishlangan Qo'qondagi Hamza Hakimzoda Niyoziy haykalidir. Haykal bronzadan ishlangan.

Mark Ivanov ham, turli ashylarda, animalistik janrida ishlaydigan, juda qobiliyatli haykaltaroshlardan hisoblanadi. U ayniqsa bezak haykallarining mohir ustasi. Yog'ochdan ishlangan „Kashtachi qiz“ (1964) asari unga mansub asarlarning eng yaxshilaridan biri.

M. Makarovning portret haykallari lirimgaga to'laligi bilan, axloqiyligi va sofligi bilan ajralib turadi.

V. Klevansov O'zbekistonda haykaltaroshlikning rivojiga ahamiyatli hissa qo'shdi. Bu san'atkor portret janrida va kulolchilik kompozitsiyalarida („Dugonalar“ 1963; „Selinnitsa“ 1964) katta mahorat kasb etgan. 60—70- yillarda V.Klevansov qator o'zbek namoyandalarining portretlari ustida ishlab kelgan. Marg'ilondagi Nurxon (1967) haykalida, o'zbek ayolining ozodlikka chiqqanligi, qomatining erkin harakati, ko'ylik burmalari ritmida jo'shqinlik ko'rinish turibdi. V.Klevansovning ahamiyatli asarlaridan, o'z vatanida o'rnatilgan o'zbek xalq shoiri Ergash Jumanbulbulning mahbatli portreti hisoblanadi (1972).

N. Fiodoridis 50-yillardan boshlab O'zbekistonda ijod qilgan. U avvalo Afina rassomlik institutida (1947—1948), so'ng Praga Badiiy akademiyasida ta'lim olgan. Afinada, bundan tashqari yunon haykaltarosh ustalari qo'lida tahsil olgan. Rassom sifatida u Mayol, Roden, Despio ijodlaridan kuchli ta'sirlangan. Uning bronzadan ishlangan „Qo'shiq“ nomli asarida o'zbek ayolining qo'lidagi doira kuyidan taralayotgan sado va undan ilhomlanish tarannum etilgan. N. Fiodoridis lirik portret („Qiz portreti“; „Grek ayoli“ 1964, sirlangan keramika) va „Ona“ chuqur-psixologik portret ustasi sifatida ham tanish.

70- yil boshlarida — o'zbek haykaltaroshlari guruhi ancha kengayib, ular qatoriga N.Bandzeladze, V.Degtyaryov, E.Aliyev, A. Djishiashvili, R.Avakan kabi haykaltaroshlar qo'shildilar. Ular o'zbek haykaltaroshlik tasviriy san'atiga ulkan hissa qo'shdilar.

R. Avakan professional haykaltarosh sifatida dastgohli haykaltaroshlikning ishonchli, murakkab masalalarini yechadi.

1967- yilda haykaltarosh A.Kapsan bilan birgalikda, Farg'ona shahrida urush qatnashchilariga atab haykal ishladilar. Andijonda me'mor T.Mahmudov bilan hamkorlikda Ikkinchiji jahon urushida halok bo'lgan jangchilar xotirasiga bag'ishlab majmua yaratdilar.

Haykaltarosh ustalar P.Ivanov, M.Musaboyev, A.Ahmedov, R.Avakan, E.Aliyev, V.Degtyarevlarining keyingi yillarda bajargan ijodiy ishlari: me'morial, tarixiy yodgorliklari, bo'rtma-bezakli ish namunalari me'morchilik qurilmalari bilan chambarchas bog'-langanligi bilan diqqatga sazovordir.

1980- yillarda o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan haykaltaroshlik san'ati namoyandalari I.Jabborov va K.Jabborov, A.Rahmatullayev, L.Ryabsev, D.Ro'ziboyev, A.Hatamov, Y.To'laganov, T.To'xtaxo'jayev, U.Mardihev, J.Mirtojiyev, Quttimuratov, T.Esonovlar turli mavzu va janrlarda ijod qilib kelmoqdalar.

O'zbekiston mustaqilligi davrida hududimizda milliy mafkuralimizga, tariximizga, madaniyatimiz qadriyatlariga bag'ishlangan yangi mavzular, siymolar paydo bo'ldi. Tantanali sanalarga (Samarqand, Termiz, Buxoro, Shahrisabz va h.k.), buyuk allomalarga (Ahmad al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy; Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, G'afur G'ulom va h.k.) atab majmualar, mahobatli yodgorliklar, haykallar ishlanmoqda.

Haykaltarosh A.Hatamov qator psixologik portretlar muallifi. U lirik asarlar ham yaratgan. Zamondoshlarimiz portretlari uning asosiy asarlarini tashkil etadi.

J.Mirtojiyev portret janrida zamondoshlar portretlarini ishlagan. Andijondagi Bobur haykali, Toshkentdagi G'.G'ulom nomli istirohat bog'ida o'rnatilgan G'afur G'ulom haykali J. Mirtojiyev qalamiga mansubdir. Yaratgan Alisher Navoiy haykallari ko'pgina shaharlarda (Moskva, Pekin, Vilnyus, Toshkent) o'rnatilgan.

Haykaltarosh Y.To'laganov asosan tosh va marmardan mahobatli-bezak haykallarini yaratgan. Uning asarları turli davlatlarning xiyobonlarini bezab turibdi.

Quttimuratov qoraqalpoq haykaltaroshlaridan biri bo'lib, o'z yurtining hayoti, turmush tarzi, Orol muammosini asarlarida aks ettirgan. U asosan tabiiy ashyo — yog'ochdan haykallar yasagan. U yaratgan „Ayol“, „Xayol“, „Orol“ haykallari psixologik mazmunga boy bo'lgan asarlardir.

Haykaltaroshlik asarini yaratish murakkab jarayon bo'lib, butun ijodiy kuchni mujassamlashni, ishda aniq muntazamlikni talab etadi, shuningdek, doimiy kuzatishni va o'rab turgan hayotimizni o'rganishni taqozo etadi. Bunda rassom o'zi uchun mavzu va obrazlarni tanlaydi.



Savol va topshiriqlar

1. Haykaltaroshlik nima? Uning ta'risini bering.
2. Ilk haykaltaroshlikka nima kiradi?
3. „Paleolitik Venera“ deganda nimani tushunasiz?
4. Misr haykallari nimani ifodalaydi?
5. Buddha haykali qaysi davlatlarga mansub?
6. Shiva qaysi siymlarni ifodalaydi?
7. „Antik san'at“ tushunchasi qayerda paydo bo'lgan?
8. „Antik san'atning“ haykaltaroshlikdagi ahamiyati qanday?
9. Antik haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz?
10. „Diskobol“ (Disk irg'ituvchi) haykali muallifi kim?
11. Ellin haykallarini ta'riflab bering.
12. Xolchayon va Tuproqqal'a haykallari farqini ta'riflab bering.
13. Yunon haykaltaroshligi bilan Rim haykaltaroshligi o'rtaсидаги farqlarni ochib bering.
14. Uyg'onish davri haykaltaroshlari kim? Ularning asarlarini aytib chiqing.
15. Gotika haykali xususiyatlari qanday?
16. Barokko haykali qanday?
17. F. Ryudnung mashhur „Marselyeza“ asari qaysi haykal turiga tegishli?
18. XIX—XX asr haykaltaroshlarini sanab o'ting.
19. Rus haykaltaroshlaridan kimlarni bilasiz?
20. Haykaltaroshlik oqimlarini sanab o'ting.
21. Haykaltaroshlikning qaysi turlarini bilasiz?
22. Haykaltaroshlikning ifodasini ta'riflang.
23. Haykaltaroshlik va lepkanning farqlari nimada?
24. „Skalpel“ tushunchasi nimani anglatadi?
25. Mikelanjelo haykaltaroshlikning qaysi yo'nalishida ishlagan?

Haykaltaroshlik turlari

Haykaltaroshlik — tasviriy san'at turlaridan bo'lib, maxsus uslub va vositalardan foydalaniib, hayotni badiiy obrazlarda aks ettiruvchi, hajmiy-fazoviy tasvirni ashyoviy buyumlarda yaratuvchi yagona san'atdir.

Haykaltaroshlikning asosiy mavzusi doim inson bo'lgan. Haykaltaroshlar tomonidan yaratilayotgan asarlarda insonning ta-shqi sezgir qiyofasi orqali, uning ichki ruhiy olami, balandpar-voz tuyg'ulari, ulkan hissiyotlari, kuchli xarakterlari, murakkab psixologik holatlari oolib beriladi.

Haykaltaroshlik—skulptura lotincha *skulpture* so'zidan olingan bo'lib — „yasash“, „yo'nish“, „o'yish“ degan ma'noni anglatadi. Ba`zida haykaltaroshlik o'rniغا „plastika“ (yunoncha „plastike“ — „lepka“ (plastik, yumshoq ashylardan buyum yasash) yopishti-rib yasamoq) — deb ham yuritiladi. Birlamchi, tor ma'noda haykaltaroshlik **chopish**, **yo'nish**, **o'yish**, ya'ni rassom tosh va yog'ochdan ortiqcha bo'lak va qatlamlarni olib tashlab, qoyatoshda yashiringan haykal shaklini chiqaradi, shu tarzda badiiy asarni yaratish yo'llari kechadi. Keyingi plastika birinchining aksi bo'lib, bunda ortiqchani olib tashlamasdan, qaytanga yetishmaydigan **joy-larini yopishtirish**, **qo'shish yo'li** bilan hajm **to'ldirilib** boriladi.

Tarixda, bu ikki atamalar ikki texnikaning kelib chiqishini tasdiqlaydi. Qadim yunonlar haykallarni avval loydan yasaganlar, so'ng ularni bronzadan quyib chiqqanlar, shuning uchun „plastika“ atamasi paydo bo'lgan va u asarning aniq xususiyatlarini va fazilat-larini belgilaydi. Aksincha, rimliklar esa haykallarni marmarlar-dan yo'nishgan va o'zlarining asarlarini „skulptura“ — „haykal“ deb ataganlar (bundan kelib chiqib „skarpel“ yoki „skalpel“ — pichoq, o'yma atamasi paydo bo'lgan).

Haykaltaroshlikning ifodalanimiga real hajmli shakllarning ar-xitektonikasi, asosiy tarxlarning qurilishi, yorug'lik sathlari, hajmlar, vaznlar, chiziqlar, ularning ranglari va ritmik hamohangligi yordamida erishiladi. Aynan ular obrazlarning mazmunlarini ifodalaydilar. Ayniqsa, mahobatli haykaltaroshlikda qiyofalarning aniqligi va yaxlitligi katta ahamiyatga ega. XVIII asrning taniqli fransuz haykaltaroshi Eten Falkone o'zining „haykaltaroshlik haqida fikrlar“ida — „asar uni sezish mumkin bo'lgan, eng uzoq masofadan, o'zi haqida bildirishi uchun havo (ko'lam), daraxt, me'morchilik zaminida, ajralishi lozim. Keng taqsimlangan yorug'lik va soyalar, shuningdek, asosiy shakllarni va umumiylarini belgilashda raqobatlashishi mumkin bo'ladi“ degandi. Sath va bo'laklarning fakturali ishlovlari, haykal obrazining plastik yechimining ifodasini yanada to'latadi.

Haykaltaroshlik o'zining shakli bo'yicha ikki asosiy turga bo'lib nadi: *aylana va bo'rtma haykaltaroshlik*.

Aylana haykal doim sun'iy yoki tabiiy yorug'liklar bilan yoritilgan, ma'lum fazoviy muhit bilan bog'liq. Yorug'lik va soya haykalning badiiy-plastik mohiyatini ochib beruvchi vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular lepka xarakteriga muvofiq sathda, shuningdek, yorug'lik manbaning o'rnatilishiga qarab joylashtiriladi.

Aylana haykalning qator turlari mavjud. Ularning asosiyлари — **haykal, bosh, hyust** (ko'krak yoki belgacha odam tasvirlari), o'zaro mazmunan va kompozitsion bog'liq, **ikki** yoki **undan ortiq gavdali (qomatli) guruhlar**.

Aylana haykalni nafaqat aylanib o'tish mumkin, balki aylanish zarur. Har bir qadam, obrazni qabul qilishni to'ldiradi va boyitadi, yangi taassurotni keltiradi. Misol tariqasida Ermitajda saqlanayotgan „Nemeyli sher bilan olishayotgan Gerakl“ haykallar guruhini aylanib o'tamiz (9- rasmga qarang). Ushbu noyob haykal miloddan avvalgi IV asarda Yunon me'mori Lisipp tomonidan yaratilgan bo'lib, bizgacha Rim nusxasida yetib kelgan (ko'pgina Yunon haykallari Rim nusxalarda bizga ayon bo'lib, ular shunchalik aniq bajarilganki, asl holati haqida to'liq tasavvurni beradi).

Bu haykal mifik qahramonning o'n ikki zafarlaridan biri haqida so'zlaydi. Odam va sher o'lim bilan olishib — chap profilda ular ikki kallali, to'rt oyoqli (sher orqa oyoqlari bilan turibdi) yagona mo'jizaviy mavjudot bo'lib ko'rindi. O'ng profilda ikki gavda aniq ko'rinoqda; shu nuqtayi nazarda ular jismonan bog'langan emas, balki psixologik — ikki tomonidan cheksiz qahr, vahshiylik g'azabi qalqib turibdi. O'ngda ayniqsa Geraklini — uning yelka chiziqlarining kuchi, rivojlangan qomati, muskulli qo'llarini ko'rishimiz mumkin, u keng oyoqlarini yerga kuch bilan tiragan, uning hajmlari og'ir, vazminli. Qahramonga qarab, bamisol o'sha jarayonda qat-nashayogandek tuyuladi; temir qisqichlari bilan sherning tomog'ini qisib, bo'g'ishga harakat qilmoqda; sher ham bo'sh kelmay tirnoqlari bilan Geraklning ko'kragiga tirmashib tirnamoqda; jang nima bilan tugaydi? Haykalni aylanib chiqibgina, shu narsani ko'rishingiz mumkin. Sherning boshi (uni faqat orqadan ko'rish mumkin) — bu yengilgan sherning boshi, uning og'zi keng ochilgan, og'ir nafas olib, ko'zları qinidan chiqqan, bir daqiqadan keyin jon beradi.

Aylana haykal antik Yunon va Rimda juda sevimli bo'lgan. O'rta asrlarda o'z faoliyatini to'xtatib, faqat Uyg'onish davridagina hayotga qaytib keldi. Balki ko'pchililinglar fotosuratlarda Donatelloning (1386—1466 yaqin) yalang'och o'spirin og'ir qilichi bilan dev kallasiga tirangan „David“ini ko'rgandirsiz (34- rasm). Bu haykal ilk qaldirg'ochlardan hisoblanadi. Shundan keyin aylana haykal Yevropa san'atiga yangitdan kirib keladi.

O'zbekiston davlat san'at muzeyida ularning namunalari saqlanmoqda.

Haykaltaroshlikda aylana haykal bir necha turga bo'linadi: **dastgohli**, **mahobatli** va **mahobatli-bezakli**. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. **Mahobatli haykal** o'zida kimnidir olqishlash yoki nimagadir chorlashga qaratilgan, u uchun qahramonona tantanavorlik va jamiyat uchun ahamiyatli, dolzarb mavzular xos, uning o'rni shahar maydonlarida, ko'chalarda, ulkan me'moriy majmualarda. **Mahobatli-bezakli haykal** — shahar, oromgohlarni va me'morchilik binolarini bezashga (lotinchadan *decorate* — bezash) mo'ljallangan; o'rab turgan muhitga tabiiy joylashib, unga ko'rkamlik baxsh etadi. **Dastgohli haykal** yopiq xonalar uchun mo'ljallangan bo'lib, biz ularni muzeylarda, ko'rgazmalarda, jamoa binolari interyerlarida uchratamiz.

Mahobatli haykal deyarli birinchisi va asosiysi hisoblanadi. Unga **yakka qomatli** va **ko'p qomatli yodgorliklar**, **memorial majmualar**, ulug' voqealarga **xotira monumentlari va byust-monumentlar** tegishli bo'lib, jomoa joylarida, ko'pincha ochiq havoda o'rnatiladi. Ular g'oyasi va badiiy shakli bo'yicha doim umumlashtirilgan bo'lib, ulkan o'lchamlari (o'zining natural hajmidan ikki-uch barobar) kattaligi bilan ajralib turadi.

Mahobatli haykal jamiyatning muhim islohot g'oyalarini targ'ibot etishga xizmat qiladi. Yodgorlik ijobiy obrazni tasdiqlaydi va doim keng ommaga yuzlanadi. Yevropa O'rta ast san'ati va Sharq (Hindiston, Xitoy) san'atida ham, haykalida ham, yovuz ilohlar yoki insoniy qabohatliklar uchraydi, lekin bu yodgorliklar hisoblanmaydi, ular diniy ibodat xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan narsalar.

Davlat nazoratida bo'lgan shahar yodgorliklari jahonga mashhur, taniqli odamlarning siymolarini abadiylashtiradi (Amir Temur, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy haykallari

va h.k.) (*I. Jabborovning „Amir Temur“ haykali, Toshkent; „Al-Farg‘only“ haykali, 1998- yil, Farg‘ona*) (35- rasm). Shahar maydoniga haykaltarosh uchun aziz va yaqin bo‘lgan do‘s-t-birodarlar, xotin-bolalarining yodgorligini o‘rnatish mumkin emas (chunki ularning siyosini ko‘rgazma zallariga dastgohli asar sifatida qo‘yishning o‘zi kifoya).

Shahar yodgorliklari qandaydir ulkan jamiyat va tarixiy voqealar munosabati bilan o‘rnataladi. Rimliklar ko‘pincha ularni g‘alaba-tantanavor peshtoq yoki ustunlar shaklida qurganlar (14-rasmga qarang). Bizda ko‘pgina bunday yodgorliklar vatan urushi hodisalari, inson fazoga uchganligi voqealariga bag‘ishlab (Gagarin haykali, Chilonzor savdo markazi maydonida joylashgan) (36-rasm) o‘rnataladi. Tabiat hodisalariga qarshi bag‘ishlangan yodgorliklar gohida me’moriy shakklardan (obelisklar), gohida majoziy yoki portretli haykal tasvirlari bilan birgalikda yaratiladi. Haykaltarosh Shapiro tomonidan Toshkentdag‘i Kosmonavtlar xiyobonida O‘zbekistonning bиринчи kosmonavt-uchuvchisi Vladimir Jonibekov sharafiga yaratilgan byust bilan birgalikda bamisol osmonga yo‘l ko‘rsatayotgan Siolkovskiy haykali bunga misol bo‘la oladi (37- rasmlar).

Ulkan yodgorlik ustasi yaratayotgan haykali qomatini to‘g‘ri qo‘yishni bilishi, turli masofada va hamma tomondan qiyofaning go‘zal ifodasini ko‘ra bilish lozim. Yodgorlikning mazmuni bir qarashdayoq tushunarli bo‘lishi talab etiladi.

Yodgorlik nafaqat ifodali qiyofaga ega bo‘lishi, balki atrofiga hamohang, mutanosib, yagona san‘at asarini namoyish etishi lozim. Yodgorlik g‘oyaviy mazmuni bilan birgalikda, badiiy-me’moriy vazifani ham olib boradi. Bu nafaqat go‘zal, tik, vertikal, hajm yoki ritmik takrorlanuvchi hajmlar, butun me’moriy majmuaga ma‘no baxsh etadi, insonning ifodali obrazi, uning atrofidagi maydon ko‘lamini birlashtiradi, markazlashtiradi. (Termizdag‘ Amir Temur haykali va bo‘rtmasi bunga yorqin misoldir.)

Har bir Sankt-Peterburgga tashrif buyurgan mehmon albatta Senat maydonidagi E.M.Falkonering mashhur Pyotr I („Mis chavandoz“) haykali bilan tanishadi (38- rasm). Pyotr I haykali bamisol qotgan to‘lqin singari ulkan xarsang, granit poyustunga o‘matilgan. Bu to‘lqinga monand harakatda otning orqa oyoqda ko‘tarilishi ritmik takrorlanmoqda. Pyotrning cho‘zilgan qo‘li „bu yerda shahar barpo etiladi...“ demoqchidek. Bu yodgorlikning asosiy

mohiyat va mazmunidir. Harakat va sokinlik, intilish va intizomli iroda, g'ayrat va donolik kabi xislatlarning barchasi mana shu yodgorlikda mujassam bo'lgan. „Mis chavandoz“ yaqindan ham, uzoqdan ham ajoyib.

Poytaxtimiz markaziy xiyobonida chavandoz Amir Temir haykali (I.Jabborov) baland poydevorda qad ko'tarib turibdi (44-rasmga qarang.)

Haykaltaroshlikda ikki qomatning kompanovkasi murakkab vazifalardan hisoblanadi. Jahan haykaltaroshligi bu ma'noda misollarga boy emas. Bu muammoni haykaltarosh I.P.Martos „Minin va Pojarskiy“ yodgorligida yorqin hal etgan (39- rasm). Bu faqatgina mexanik, yonma-yon qo'yilgan qomatlar emas, balki chambarchas bog'langan guruh, bunda har bir harakatni, har bir hajmni, chiziqni, qiyofani o'zgartirish mumkin emas, chunki u organik bog'langan.

Dastgohli haykal haykaltaroshlik turlaridan biri bo'lib, me'moriy inshootlar bilan ham, shahar yoki oromgoh majmualari bilan ham bog'liq emas. Uning dastgoh deb atalishidan maqsad, „dastgoh“ga yoki taxmonga o'rnatilib, asosan ko'rgazmalar, muzeylar, jamaa va xonardonlar interyerlari uchun mo'ljallangan.

Dastgohli haykal, yaqin masofadan, uning atrofini o'rabb turgan boshqa asarlar yoki me'morchilik interyerlari bilan bog'lanmagan holda tomosha qilishga belgilangan. Dastgohli haykal o'zining o'lchami bo'yicha, asosan, yo kichik, yoki nisbatan kattaroq bo'ladi.

Dastgohli haykal inson siyomisini yaratadi, uning xarakterini, kayfiyatini va harakatini ko'rsatadi, ko'pincha murakkab psixologik vazifalarni yechadi (masalan, portretda). Unda rassom shakl mutanosibliklariga, harakat va tuyg'ular uyg'unligiga, ashyolarda ishlab chiqishning yakunlanganligiga alohida ahamiyat qaratadi.

Dastgohli haykal o'zining mazmuni bo'yicha xilma-xilligi bilan ajraladi. Dastgohli asarlarga F.I.Shubin portreti (40- rasmga qarang), M.M.Antakolskiyning barcha haykallari (41- rasm) va E.A.Lanserening odam va jonivorlarni tasvirlovchi, kichik bronza statuetkalari (42- rasm) va ko'pgina ustalarning ishlari: jumladan, I.D.Shadning ayrim portretlari misol bo'la oladi (43- rasm).

Dastgohli asar oldida to'xtab hamisoli qiziqarli hikoyani o'qiyotgandek, hissiyotlar, xavotirlar va xarakterlar ola-miga kirib boradi. Misol tariqasida D.Ro'ziboyevning „Farishta“ asari, Tretyakov galereyasida bunga misoldir (44- rasm).

Kichik shaklli haykalchalar dastgohli haykalning maxsus turlari hisoblanadi. Bu kichik bronza, cho'yan, kumush, shisha, chinni, fayans, shamot, sopol, yog'och, plastmass va boshqa ashylardan ishlangan, odam va jonivorlar statuetkachalari kichik shaklli haykalchalaridir. Ayniqsa, uy jonivorlari va hayvonlar dastgohli statuetkalar keng tarqalgan; jonivornarni tasvirlovchi haykaltaroshlarni animalistlar (lotincha *animal* — „jonivor“) deb ataydilar. Bunday kichik shaklli haykalchalar o'zida qandaydir bezaklikni yuritadi, u deyarli inson turmushini, uning xonadonini bezashga qaratilgan. Bu, ayniqsa, kulolchilik, chinni va fayans asarlariga tegishli bo'lib, ularga turli ranglar bilan bo'yab, ularning ifodasi nafaqat hajm tufayli, balki rang bilan ham boyitilib yaratiladi. Kichik shaklli haykalchalarda hajviy obrazlar va sharjlar ham bo'lishi mumkin. O'z xosiyati bo'yicha ko'p tirajli bo'lganligi, ya'ni minglab nusxalarda (sanoat korxonalarini sharoitida) ko'paytirilib, takrorlanganligi sababli u amaliy san'at bilan ham chegaralanadi. Amaliy san'at ko'lami juda keng: zargarlik, yog'och, tosh, suyak va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik — bularning barchasi amaliy haykal turlari.

Yurtimizda bu yo'nalish borasida xilma-xillik mavjud bo'lib, katta muvaffaqiyatlarga erishilgan. Mahalliy turmush tarzini ifodalovchi sovg'alar (suvenirlar): amaliy san'at asarlari (haykalchalar), xalq o'yinchoqlari, turli-tuman chollar, jonivorlar tasvirlari shular jumlasidandir (45- rasm).

Mahobatli-bezakli haykalni deyarli har qadamda uchratish mumkin. U me'morchilik, umuman, atrof-muhit, tabiat, shahar majmualari bilan chambarchas bog'liq. U binoning tashqi va ichki haykaltaroshlik ziynatining barcha turlarini o'z ichiga oladi: shahar ko'priklaridagi haykallar, bino tarzlarida, mehroblerda yoki peshtoqlar oldidagi guruhlar, tarzlardagi bo'rtmalar shular jumlasidandir.

Mahobatli-bezakli haykal g'oyaviy-obrazli vazifalarni yechadi. Misol sifatida Sankt-Peterburgdagi Admiralteystvo, Birja, Narqli darvozalar, Bosh shtab binosi, xalq kutubxonasi va boshqalar. Ularning yuqori badiiy ifodasi, me'morchilik va haykaltaroshlik obrazlarining yagonaligini tashkil etish bilan belgilanadi. Haykaltaroshlik inshootning maqsadini va g'oyasini rivojlantiradi va yoritadi, shu bilan birga, me'moriy shakllarning yangrashini

kuchaytiradi (gohida hamohangligi bilan, ba'zida esa qarama-qarshiligi bilan). Lekin bitta san'at turi ikkinchisida erib ketmaydi; o'zining xususiyatlarini saqlagan holda, ular uyg'inlikda, yagona badiiy obrazlarda birikadilar. Aynan shu misollar, barokko davrida yo'qotilgan, klassitsizm bezakli haykaltaroshlikka mustaqil ohangni qaytarib berdi, masalan, Rastrellida konstruktiv qism ham, bezak sifatida qabul qilingan, haykal esa o'zining obrazli ahamiyatini yo'qotib, faqat me'moriy shaklning umumiylarini harakatini davom ettiradi.

Me'morchilik va haykaltaroshlik **sintezining** muvaffaqiyatli misoli sifatida Sankt-Peterburgdagi buyuk rus me'mori A.D.Zaxarov loyihasi bo'yicha qurilgan va F.F. Shedrin va I.I.Terebenev haykalli gavdalar va bo'rtmali ishlari bilan bezalgan mashhur Admiralteystvo binosi hisoblanadi (46-rasm).

Admiralteystvoning bosh minorasi, og'ir vaznli pastki qatlama ustida yengil ustunlar, yarimaylana zar uchqur gumbaz bilan hamopang. Tekis devorning pastki qatida, bamisolli jimgimador tur bo'lib, Terebenevning „Rossiyada flotning yaratilishiga“ bag'ishlangan gorelyefi ajralmoqda.

Nim-aylana ravog bilan hoshiyalangan darvozaning ikki yonlarida o'n bir metrli **kariatidalar** deb atalgan haykallar guruhi turibди. Uch go'zal — „dengiz parilarini“ tasvirlovchi har bir guruhi globusni ko'tarmoqda. Bu guruhi — haykaltarosh F.F. Shedrinning eng yaxshi asaridir — o'zining buyukligi, kuchi va shu bilan birga, ulkan aylanani tirab turgan parilar ayollik sarvqomati bilan lol qoldiradi. Bu haykallarning oliyjanob qiyofalari markaziy minoralar tekis devori zaminida chiroyli ajralmoqda. Darvoza ravog'ini hoshiyalagan bo'rtmalar, qo'lida alvon ko'targan, uchayotgan zafar elchilarini tasvirlaydi.

Aylana haykallar tomoning pastki qatini va ustun tepasini bezamoqda. Haykal va me'morlik qismlarning uyg'unligi, mutanosibligi va hamohangligi yagona badiiy yaxlitlikni yaratadi. Takrorlanayotgan shakllarning ritmi tomoshabin nigohida qanoatlantirish hosil qiladi; bino gorizontallari va vertikallari haykallarning oquvchanligi bilan ajratiladi va sokin devor sathini yengil jimgimador bo'rtma frizlar bilan jonlantiradi, devorning o'zi esa Rossiyanı buyuk dengiz mamlakati sifatida olqishlovchi mavzuli haykallari bizning nigohimizni jaib qilishga chorlaydi.

Me'moriy-haykal sintezining yorqin misoli sifatida 1937 yil Parijda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada B. M. Iofan loyihasi asosida sovet pavilonini va V. I. Muxinaning „ishchi va kolxozchi ayol“ guruhi haykali bezadi (47- rasm). Butun pavilon harakatga to'lib, gorizontal shakllarning o'suvchanligi, asosiy markaz qismi barnisolgi vertikal uchayotgan pilonlarga aylanib ko'rsatilgan. „Ishchi va kolxozchi ayol“ haykali o'zining kompozitsion yechimida ushbu harakatni qaytarib: avval — olg'a, so'ng — yuqoriga. O'roz va bolg'ani yuqori ko'tarib, dadil qadam bilan go'zal va yosh — ishchi va kolxozchi, butun sovet xalqining timsolini mujassam-lashtirganlar.

Mahobatli-bezakli haykallarga, shuningdek, gulzor-xiyobonlardagi haykallar, byustlar, favoralar, bezakli guldondalar kirdi. Bularning barchasi yashil o'simliklar yoki kuz shabbodalari ohanglari bilan bevosita hamohangdir.

Eng yaxshi gulzor-xiyobonli haykallar balandparvoz she'riyat bilan burkangan. Pushkinning musiqa singari jaranglayotgan, chuqur tuyg'uga to'la „Sarskosekskaya haykal“ she'rida:

*Suvli xumni tushurdi qiz, u qoyatoshga tegib sindi,
Singan sopol parchasin ushlab, qiz g'amgin o'tirardi.
Ajabo! Singan sopol parchasidan, suv shildirab oqmoqda,
Qiz mangu irmoq tepasida, mangu g'amga botmoqda.*

Bu she'r haykaltarosh P.P.Sokolov ishlagan „Qiz singan xum bilan“ nomli, Leningrad yaqinida Pushkin shaharchasidagi Ekaterinaning saroyi xiyobonida joylashgan kichkina bronza haykalchasiga bag'ishlangan (48- rasm).

O'zbek haykaltaroshi D. Ro'ziboyev asarlari ham bunga misol bo'la oladi.

Aylana haykaldan tashqari haykaltaroshlikning ikkinchi bo'rtma (relyef) turi mavjud. Umuman, bo'rtmaning roli haykaltaroshlik turi sifatida doim ahamiyatli bo'lgan. U o'z tarixiga, ulkan badiiy imkoniyatlarga va texnik xususiyatlarga ega.

„Relyef“ so'zi italyancha *relievo* — bo'rtma, qavariq, do'nglik ma'nosini anglatadi hamda o'zining tasviriy imkoniyatlari bo'yicha oraliq o'rinni egallaydi. Bo'rtmada tasvir hajmli shaklda yaratiladi, ayrim hollardagini tekislik sathidan qisman chiqib turishi mumkin.

Barcha haykaltaroshlik singari, u uch o'Ichamga ega, uchinchisi — qisqartirilgan, taxminiy. Boshqacha aytganda, u aylana haykal va tekislikdagi tasvir o'rtasidagi oraliq bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Tekislik sathi ham, texnik asos va bir paytning o'zida — kompo-zittiya joylashgan zamin ham hisoblanib, chizma tasvir singari sath ustida yoyiladi. Bo'rtma mavzu ko'pgina odamlarni tasvirlash bilan bog'liq, ularning manzarada yoki interyerda kechayotgan harakatini ochib berishga imkoniyat beradi.

Bo'rtmalar, ayniqsa, Qadim Sharqda, Hindistonda, Ikkidaryo oralig'ida, Kambodjada, Eronda va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Nineviyadagi va Persepoldagi bo'rtmalar osuriy va fors hukmdorlari saroy sahnalari bilan boshdan oyoq to'ldirilgan. Osuriylar urush va ov sahnalarni tasvirlaganlar, ular jonivorlar harakati va tuyg'ularini, qahrini, kurashishini, qiyognog'ini ko'rsatishda, o'zlariga hech kim teng kelolmasligini bilardilar. Persepol bo'rtmalari shoh hukmini tasdiqlaganlar: ularda quroq-aslahали jangchilar, „shohlar-shohiga“ o'z in'omlarini keltirgan xalq: vavilonliklar — buqalarni, armanlar — otlarni, elamitlar — sherlarni, arablar — tuyalarni yetaklab kelmoqda. Barcha qomatlar bir xil bo'lganligi va bir yo'nalishda ketishi sababli ko'pgina odamlar va jonivorlarning ketma-ket yurishi tugamaydigandek tuyuladi: oddiy takrorlanish uslubi va o'ziga xos ritm va voqealarning ulug'vorlik hissini keltirib chiqaradi (5- rasmga qarang).

Sharq bo'rtmalari masshtabi bo'yicha yevropaliklardan oshadi. Ba'zida ular butun devorni boshdan oyoq to'ldiradi, ba'zida esa tepada joylashgan friz hoshiyasida — gorizontal tasma sifatida bezaladi. Ular doim hashamatli. Osuriyadagi Dur-Sharrukin saroy xonalari frizlarining umumiy kengligi olti ming kvadrat metrni tashkil etadi. Ko'hna Kambodja paytaxti Angkorda „fillar avyon“ frizlarida, fillar asl o'Ichamda tasvirlangan.

Bo'rtmalardagi tasvirlar ko'p hollarda juda realistik. Angkordagi bo'rtmalar xalq hayotining asl kundalik ensiklopediyasi hisoblanadi. Ularda qushlarga kamon otayotgan ovchilar, baliq tutish uchun suvg'a to'rlarni tashlayotgan baliqchilar, g'ishtlarni sayqallovchi g'ishtkorlar, taom tayyorlayotgan oshpazlar va boshqa sahnalar tasvirlangan. Persepol saroyidagi tantanavor bo'rtmalarda realizm jiddiy saqlangan: shoh kiyimlarining hoshiyalari aniqlik bilan

aslidagidek tasvirlangan, bularni biz arxeologik qazilmalaridan ko'rshimiz mumkin.

Bo'rtma uch asosiy turga bo'linadi: **chuqurlashtirilgan** (uglublenniy), **barelyef** va **gorelyef**.

Chuqurlashtirilgan deb nomlanishidan maqsad, u tekislik sathiga nisbatan ichkariga qarab o'yilgan bo'lib, tekislik tasviri to'liqligicha saqlanadi. Bu grafikli va juda aniq texnika: yorug'lik va soyadan taralayotgan jilosiga qaramasdan, uning sathidagi yengil modelirovka bilan chizma tasvirdagi aloqa hech qachon buzilmaydi.

Qadimgi Misrda chuqurlashtirilgan bo'rtma keng qo'llanilgan. Ular bilan miniaturali qutichalarni va ulkan ehromlarni bezaganlar. Ehromdag'i bo'rtmalar uzoq masofadan ko'rshga mo'ljallangan bo'lib, aniq kompozitsiyalarga va ravon konturlarga ega edi (49-rasm). Ayniqsa, ularning konturlari fir'avnlar va yaqinlari tasvirlari yanada chuqurroq o'yilib, qomatlari hajmli ko'rinaridi, oddiy fuqarolar yuzaki „chizilar“ edi va tekis tuyulardilar. Bu uslub misriklarda yevropaliklarning kelajakdag'i o'rnini bosgan.

„**Barelyef**“ so'zi fransuzcha *bas-relief* — „**past bo'rtma**“ ma'nosini bildiradi (58-rasm).

Barelyefning klassik misoli sifatida Qadimgi Yunonistondagi Parfenon ehromining (miloddan avvalgi 442—435- yillarda) frizi bo'lib (50-rasm), unda afinaliklarning shahar himoyachisi—ilohi Afina ehromiga tantanavor ziyyorati tasvirlangan. Hurkigan otlarni to'xtatayotgan yigitlar, tepalikka intilayotgan chavandozlar, may to'la ko'zalarni ko'targan o'spirinlar, tinchlik ramzi bo'lgan zaytun shoxlarini qo'lida tutgan qariyalar — bularning bari frizda qisqartirilmasdan tasvirlangan; barelyef devor sathini buzmasdan, ba'misoli parallel yoyilib, ehromning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Frizning eng jozibali bo'laklaridan biri — „Afinaga atab choyshab to'qigan qizlar yurishi“ asaridir (49-rasm). Ular shoshmasdan, mayin ketmoqdalar, ularning ishoralari ulug'ver sekinlashtirilgan, gavda holatlari almashinishi kompozitsiyaning ritmiga asoslangan. Ularni tashkil qilgan jarayonning umumiylilik ruhiyatini, barchaning hamfikrligini ko'rsatish uchun, rassom hamma kallalarni — chavandozlarni ham, yo'lovchilarni ham — bir darajada tasvirlagan, bunday usul **iskefaliya** deb ataladi. Bo'rtma kompozitsiyasi yuruvchilarning ketidan yo'nalayotgandek rivojlanadi, friz zamini umuman tekis, nigoh ketayotgan qomatlar qiyofalariga mujassamlangan.

„**Gorelyef**“ fransuzchadan *haut-relief* — „**baland bo‘rtma**“ ma’nosini bildiradi.

Gorelyefdagি qomatlar yarimidan ancha katta hajmda bo‘rtib turgan, ko‘p hollarda to‘rtdan uch qismi, ba’zida esa yaxlit hajmi, zaminda deyarli yengilgina uzilgandek.

Gorelyef me’morchilik bilan ham, tekislik bilan ham bog‘langan.

Butun jahonga Pergam mehrobi (miloddan avval 180- yil) gorelyeflari tanish, ilohlar bilan bahodirlar, zamin o‘g‘lonlarining jangi tasvirlangan (51- rasm).. Parfenon frizidagi sokinlikka qarama-qarshi Pergam mehrobidagi frizda hammasi to‘lqinlangan, jo‘shqin. Kurashayotganlarning qomatlari chirmashib ketgan, bir-biri bilan to‘qnashgan, ayrim hollarda qaynayotgan qubba singari — ularga ajratilgan ko‘lamga sig‘may, joy torlik qilmoqda. Hamma yoqda no-insoniy kuchlanish sezilmoqda. Zevs birdaniga uch dev bilan kurashmoqda; Apollon tanalar ustidan o‘zining quyoshli aravasida uchib ketmoqda; Afinaning muqaddas iloni qanotli Alkioneyga hujum qilib, uning ko‘kragidan chaqdi, yosh go‘zal chehrada qilnoq azobi ko‘rimmoqda. Kurashayotganlarning jo‘shqin harakatlari va murakkab tana burilishlari, kiyimlarning hilpirashlari va yorug‘lik-soyalar bilan kuchlantirilgan: yoritilgan va soyadagi joylarning qarama-qarshiliqi voqealarning fojiaviy taassurotini kuchaytiradigan (52- rasm).

Haykaltaroshlar kurashayotgan tanalarning bahaybat hajmlarini, ularning mushaklari yordamida ajratmoqda. Gorelyef kuchlanishdan titramoqda va tebranmoqda, ayrim gavdalar esa tekislikdan ajralishga tayyordek tuyuladi. Bamisol, marmar plitalardan qutilib, ular nafaqat mavhum, balki mavjud borliqda yashayotgandek.

O‘zbekiston tarixi muzevida marmardan ishlangan „Mehrob ichida sajdada o‘tirgan Budda ilohi“ gorelyefi o‘ta nozikligi, mahorat bilan ishlanganligi tomoshabinni lol qoldiradi (53- rasm).

Ko‘p qomatli bo‘rtmalar, aylana haykal guruhiiga qaraganda, odatda ta’riflovchi, ularning „hikoyalari“ mukammal yorituvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Haykaltarosh o‘z fikrini „to‘xtalgan daqiqadagina“ emas, balki uning qissasi, kechayotgan voqealarning xronologik tartibda yoritilishini ifodalashi mumkin. Bu g‘alaba ravoqlari va ustunlarni bezovchi Rim bo‘rtmalarida ravon ifoda-

langan. 38 metrli Trayan ustuni (14- rasmga qarang) daklar ustidan g'alaba qozonganligi munosabati bilan poydevordan boshlab, to kallaboshgacha morpech (spiral) tasmali, trayanning dunaya yurishlari haqida aniq voqealarni so'zlovchi barelyef o'rnatilgan. Juda mukammal parchalarda — rimliklarning qurollanishi, qurollaslahalar, kemalar, ko'priklar ko'rsatilgan.

Yana bir misol sifatida hammamizga tanish bo'lган Ayrитом frizini (1—2 a.) keltirishimiz mumkin. Unda akant barglari orasidan sozanda ayollarning yarim qomatlari tasvirlangan. Har bir ayol qo'lida turli musiqa asboblari mavjud.

Renessans davrida Italiyada dastgohli asarga tegishli, yana bir bo'rtma turi yaratilgan bo'lib, **perspektivali** yoki „**rangtasvirli bo'rtma**“ deb nomlangan edi. O'z maqsadi bo'yicha u rangtasvirli kartinaga o'xshaydi. Rangtasvirli bo'rtmada perspektiva vositalari orqali muvozanatni ko'rsatish mumkin. Perspektivani yaratish uchun, ya'ni uzoqlashib ketayotgan ko'lam taassurotini, haykal-taroshlar bo'rtmani ko'p planli bajaradilar, birinchi darajali gavda va buyumlarni ancha katta va qavartirib, ikkinchi va uchinchisini — mayda va yupqaroq tasvirlaganlar. Rangtasvirli bo'rtma o'zida bareliefni ham, gorelyefni ham mujassam etishi, unga manzara va me'moriy zaminni ham kiritishi mumkin. Kartinaga o'xshagan, lekin me'morchilik bilan bog'langan mahobatli bo'rtmadan keskin farq qiladi: mahobatlida — Parfemon frizi bo'ladimi, yo Pergam mehrobimi — gavdalar harakati tekislik sathida rivojlanadi; rangtasvida esa, u bamisol devorni „teshib“, uzoqlashayotgandek tuyuladi (60- rasm).

Rangtasvirli bo'rtma mustaqil, me'morchilik bilan bog'lanmagan dastgohli asar hisoblanib, rangtasvirli asar sifatida turli interyerlarda o'rnatilishi mumkin.

„**Rangtasvirli bo'rtma**“ misoli tariqasida rus haykaltaroshi F.P.Tolstoyning Gomerning „Odisseya“ mavzusiga ishlangan „Merkuriy Penelopaning kalliklari sharpalarini do'zaxga yetaklamoqda“ asarini keltirishimiz mumkin (54- rasm). Bo'rtmani sinchiklab o'rganganimizda: birinchi planda, do'zax darvozasi ning bahaybat ravog'i ulkan tosh plitalar qurshovida, ichkarida harakatlanayotgan sharpalar ko'rinmoqda, oldinda uchayotgan Merkuriy — ilohlarning hukmini bajarayotgan — aso yordamida yo'l ko'rsatmoqda. Chapda yo'lak oldida ikki jangchi qomati. Kalliklar sharpalari janaza savanlariga o'ralib tasvirlangan. Turli holatlar va

ishoralar ularning ruhiy qyinoqlarini, azobli yoki qayg'uli itoatkorligini ko'rsatmoqda. Ikkinci darajali gavdalarning shu'lalangan yupqa lepkalari orqali, qora zamin yorug'lik—soya va manzaraning havoli ko'laming illuziyasini yaratadi. Haykaltarosh Merkuriy va jangchilarning qomatini hamda kurgagan o'simliklar bilan chir-mashgan xarsangtoshli do'zax yo'lagini baland bo'rtmada bajargan. Ikkinci ko'tinish uchayotgan sharpalar guruhini tashkil etmoqda. Uchinchi plan illuziyasini oqayotgan Stiks—unutish daryosi yaratmoqda. U yupqa bilinar-bilinmas bo'rtmada bajarilgan bo'lib, qora zamin yaqqol ko'rinxmoqda. Nihoyat, to'rtinchi planda — Stiks daryosining boshqa sohilida qayiqchi Haron o'zining kemasida key-ingi gunohkorlar guruhini tashishga shaylanmoqda. To'rtinchi plan-dagi gavdalar qolganlardan ancha kichiklashtirilgan bo'lib, uning uzoqlashganligini tasvirlaydi. U shuningdek, juda past bo'rtmada bajarilib, qora zamin ichra qorong'ilik tuyg'usini uyg'otadi. Shun-day qilib, mahorat bilan ishlangan bu bo'rtma, haykaltaroshlikda rangtasvir usullarini qo'llab ko'lamni ko'rsatish namunalaridan biridir.



Savol va topshiriqlar

1. Aylana haykal nimani tasvirlaydi?
2. Statuya nima?
3. Byustda nima tasvirlanadi?
4. Lisipp asarlarini ta'riflab bering.
5. Donatello, Mikelanjelo „David“ining farqlari nimada?
6. Mahobatli haykal nimani targ'ibot qiladi?
7. Mahobatli haykal nimani o'z ichiga oladi?
8. „Pyotr I“ haykali muallifi kim?
9. Ikki qomatli haykallarning qaysilarini bilasiz?
10. „Dastgohli haykal“ haykaltaroshlikning qaysi turiga tegishli?
11. „Dastgohli haykal“ mualliflarini aytib bering.
12. Kichik shaklli haykallar qaysi haykaltaroshlik turiga tegishli?
13. Animal haykaltaroshlar nimani tasvirlaydi?
14. San'at sintezi deganda nimani tushunasiz?
15. Kariatida va Atlantlar tushunchasi qanday?
16. Mahobatli haykal sintezi misollarini keltiring.
17. Mahobatli-bezak haykal o'rni qayer?
18. Bo'rtma nima?
19. Bo'rtma turlarini aytib bering.

20. Misr bo'rtmalari qaysi turga tegishli?
21. Barelyef nimani bildiradi?
22. Barelyefdan misol keltiring.
23. Gorelyef bo'rtmasini ta'riflab bering.
24. Pergam va Parfemon frizlari farqini aytib bering.
25. Ko'pqomatl bo'rtmalarda nimalar tasvirlangan?
26. Ayrитом frizi qaysi hududga tegishli?
27. Rangtasvirli bo'rtma qaysi davrda rivojlangan?
28. Rangtasvirli bo'rtma mualliflaridan kimni bilasiz?
29. Haykal janrlarini aytib bering.
30. „Koloslар“ deganda nima tushuniladi?

Haykaltaroshlik janrlari

Aylana dastgohli haykalning **janrlari** qanday? Statuya, haykallar guruhi, portretlar va animalistik asarlar haqida to'xtaymiz. Insonning bo'yи baravar, qomat o'Ichami bo'yicha ahamiyatli tasviri haykal deb ataladi. Faqat ayrimlari alohida haykallar — ulkan o'Ichamli, qahramonona mavzuli, doim ochiq havoda turishga mo'ljaltangan — mahobatli hisoblanadi. Qadimda o'Ichami bo'yicha ulkan haykallarni **kolossalr** deb ataganlar. Antik Yunonistonda mashhur Koloss Rodoskiyga Rodos oroli aholisi makedonlar ustidan g'alaba qozonganligi munosabati bilan ulkan haykal o'rnatganlar. Rivoyat qilinishicha, u shunday mahobatli bo'lganki, zilzila vaqtida uning qoldiqlari to'qqiz yuz tuyadan iborat karvonni bosib qolgan ekan. Mahobatli haykallarni hanuzgacha o'rnatishmoqda, lekin koloss atamasi hozirga qadar deyarli qo'llanilmaydi.

Statuya o'zining hayotiyligi va aslligini tasdiqlashi, tomoshabin tomonidan oson va erkin qabul qilinishi lozim. Rassom uni yaratayotganda avvalambor shaklning muvozanati va to'liqligi, uning turg'unligi haqida o'ylaydi. Shuning uchun haykaltarosh, odam tuzilishining barcha qirralarini sinchiklab o'rganishi kerak: u mushak kuchlanishi, turli ishora o'zgarishida qayerda joylashishini bilmay turib, qaysi mushak, kuchlanish orqali harakatga kelishini ko'rsata olmaydi. „*Qandaydir mashinani tushunish uchun, uni ko'chirib chizish kifoya emas, uni buzib va qaytadan yig'ib, har bir qismini tushunib, anglab yetish zarur, chunki unda ortiqcha kerakmas narsa yo'q, har biri qandaydir vazifani o'taydi*“ , deb yozadi haykaltarosh Golubkina. Hozirgi paytda plastik anatomiya badiiy

ta'lif yurtlarida va institutlarda o'rganilmoqda, rassom uchun har tamonlama ta'lif olishga yengilliklar yaratilgan. Uyg'onish davrida anatomiyani bilish faqat shifokorlarga mansub edi; Mikelanjelo (1474—1564) odam tanasini bilish uchun tunlari, yolg'iz, yashirin holda jasadlarni yorib o'rghanar edi; u paytda bunday harakat o'lim bilan jazolanar edi. Antik davrda anatomiyani shifokorlar ham bilishmagan. Yunon rassomlari kuzatuvlar bilan kifoyalanardilar, lekin bu kuzatuvlar nihoyatda aniq bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrda Miron tomonidan sport mashg'ulotlari vaqtida atletni tasvirlovchi „Diskobol“ („Disk irg'ituvchi“) haykali yaratilgan edi (6- rasmga qarang). Boshini sal o'girib, atlet disk ushlayotgan qo'liga qaramoqda; uning tanasi kuchlangan, unda har bir mushak harakatda; butun og'irligi bilan oyog'iga tayanib, bamisoli u uloqtirish paytida disk uchib ketib, o'zi esa tanasini tiklashga tayyor. Zamonaviy kinooperatorlar, disk uloqtirgan sportchilarni suratga olishda, Miron bir daqiqagini kechadigan vaziyatni tasvirlaganini isbotlab berishdi.

Statuyaning ifodalanishi — bu yagona yaxlitlikni tashkil etuvchi hajm va vazn, ruhlantirilgan va ichki qurilganlikning ifodalanishidir.

Haykalni yaratayotganda, rassom uni „ichkaridan“ qurishga intiladi, konstruktiv, ya'ni uning negizini, „skeletini“ tasdiqlab, so'ng esa tashqi shakllarni yasaydi. Mashhur fransuz haykaltaroshi Ogyust Roden (1840—1917) yaratilajak asarga yakunlangan obyekt sifatida qarashni maslahat qilar edi.

Ma'lum inson tasviriga bag'ishlangan haykaltaroshlik asari — *portret* deb ataladi. Portret o'zida bir, ikki yoki bir necha odamni mujassam etsa, unda u juft yoki guruqli portret deb ataladi. Portret odamni boshi, belidan yoki to'liq gavdasini ifodalashi mumkin. Eng ko'p uchraydigan ko'krakkacha tasvir — *byust* deb ataladi (55- rasm).

Portretga qo'yiladigan birinchi talab — o'xshashlik, shaxsiy o'xshashlikni yetkazish. Lekin o'xshashlik tashqi sifatlar bilan kifoyalanmaydi, rassom psixologik tahlil asosida uning ichki olamini, xarakterli xususiyatlarini, hayotga munosabatini ochib beradi.

Portret janri ayniqsa Qadimgi Rimda keng tarqalgan, ko'pgina tadqiqotchilar fikricha, portret rimliklarning jahon san'atiga qo'shgan eng ulkan hissasi hisoblanadi (56—57- rasmlar).

Sujet va obrazlar

Haykaltaroshlikda mavzu, sujet va obraz tushunchalarining farqiga borish lozim.

Mavzu — bu, rassom o'z asarida murojaat qiladigan, qator hayotiy hodisalar bo'lib, uning yaratilishida, bu hodisalarning ruhiy o'zaro bog'liqligi asosiy rolni o'ynaydi.

Mavzu albatta g'oya bilan bog'langan bo'lib, rassom o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan va jamiyat hayotini belgilovchi uning talqinidan kelib chiqadi. Mavzu va uning talqini asarning g'oyaviy-mavzuli asosini tashkil etadi.

Mangu mavzular mavjud — onalik, muhabbat, hayot va o'llim. Butun davr rassomlari ushbu mavzularga murojaat qilganlar, har bir davr ularning talqiniga yangi qarashlar olib kiradi.

Sujet — bu aniq mavzuning ifodasi, ma'lum hodisa va voqeanning badiiy ijrosi. Har qanday mavzu ko'pgina turli sujetli yechimlarni o'z ichiga oladi.

Sujet, sujetli harakat orqali holat, odam xarakteri, qiliq'i, tarixiy voqealar, maishiy janrlı sujetlar tasvirlanadi. Ko'pgina haykallar juda oddiy sujetga ega, ularning asosida qandaydir murakkab bo'limgan voqealar yotadi. E. Tulaganovning marmar haykallari misol bo'la oladi (58-rasm).

Haykal qandaydir murakkab mazmunga ega bo'lsa-da, unda kechayotgan harakat qandaydir bir voqeani ifodalaydi. Kamon otayotgan Gerakl asarini bunga misol qilib olishimiz mumkin (29- rasmga qarang).

Obraz — bu rassomning xayolida tiklangan, umumlashtirilgan ifodasi, butun davr, sinf, sulola haqida so'zlovchi san'at tasviri (61- rasmga qarang).

Haykaltaroshlik obrazi moddiy asosda paydo bo'ladi, tasviriy ifodaning maxsus vositalari, borliqning eng umumiyl alomatlarida namoyon bo'ladi, tomoshabinda u yoki bu emotsiyonal hissiyotlarni — xursandchilik, g'amginlik, chuqur hurmat-e'tibor, g'urur, tantanavorlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Haykaltaroshlikda xilma-xil **obrazlar** — epik (ulug'lik, buyuklik), geroik (qahramonona), lirik (his-hayajonli, tuyg'uli) obrazlar mavjud.

Umumlashtirilgan obraz uchun emotsiyonal va ruhiy mazmun juda muhim. Uning hamma tashqi shakllari hayotning ichki haqqoniyligi, hissiyotlar bilan to'latilishi kerak. „Umumlashtirish, mavjud hajm plastikasini boyitish degani, ya'ni shaklning ichki mazmuni kuchlanishi ma'nosida“, deb ta'kidlagan Muxina (65-rasm).

Obrazning emotsional yangrashini kuchaytirish uchun haykaltaroshlar ko'pincha giperbolaga, bo'rttirishga yuzlanadilar.

Istiora yoki qiyoslash bilan bavosita ifodalangan badiiy obraz — **allegoriya** deb ataladi. Allegoriya ko'pincha mavhum tushunchalarni jonli obrazlar orqali gavdalantirishda, ularni jonlantirishda uchraydi, ya'ni aniq obrazlarga yaqin taqqoslash orqali tasvirlanadi.

Allegoriya ko'hna Assiriyada tanish bo'lgan — adolat — odamquyosh, kuch — odam kallali bahaybat qanotli buqa — shedu, ko'rinishida tasvirlangan edi. U antik davrlarda, o'rta asrda, uyg'onish davrida keng tarqalgan. Qadim Misorda odam kallali, sher qomatli — sfinkslar haykallari; pdam yarimqomatli, ot tanali kentavrlar O'zbekiston o'rta asr me'morchiligidagi mahobatlibezak san'atida Varaxsha saroyining devoriy rasmlarida burgut boshli, qanotli tuyalar va otlar; Samarqanddag'i Sherdor madrasasi peshtoqidagi odam yuzli quyosh tasviri va shu kabilar.



Savol va topshiriqlar

1. Mironning „Diskoboli“ qaysi haykaltaroshlik xiliga tegishli?
2. Portret janri nimani ifodalaydi?
3. Mavzu deganda nimani tushunasiz?
4. Sujet nima?
5. Obraz ta'rifini ochib bering.
6. Allegoriya qanday ma'noni anglatadi?
7. Haykaltaroshlik asbob-uskunalarini aytib bering.
8. Qanday dastgohlar mavjud?

HAYKALTAROSHLIKDA ISHLATILADIGAN O'QUV QUROLLAR **Asbob-uskunalar**

Haykaltarosh uchun zarur uskunalar to'plami talab qilinadi. Bu yog'ochli bolg'a — kiyanka. Bo'rtma zaminni loy bilan to'ldirish uchun qayin yoki qarag'ay daraxtidan yasalgan oddiy to'qmoq olinadi. U bilan aylana qomatlarni ishlov berishda, karkasni loy bilan to'ldirib chiqish, ya'ni torsni, oyoq, qo'l, kalla va boshqa unsurlarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Har bir haykaltaroshning o'zi foydalanadigan qator steklari bo'ladi. Stekdan tashqari ortiqcha loyni olib tashlash uchun halqlar zarur. Yaxshi steklar Kavkazda o'sadigan *shamshod* daraxtidan yasaladi. Steklar shuningdek nok, olma, chetan daraxtlaridan va nastaringul novdalaridan tayyorlanadi (59- rasm).

Yaxshi metall steklar: po'latdan va latun o'zandan; metall halqa — sirtmoqlar latundan, ba'zan zanglamaydigan po'latdan yasaladi. Steklar asosan ishni yakunlaganda va bo'laklarni ishlab chiqishda ishlatiladi, qo'l bilan ishlab bo'lmaganda. Sirtmoqlar bilan ortiqcha loyni kesib tashlash uchun qo'llaniladi. Sirtmoqlar burmalarini bajarishda qulay. Bu uskunalarni do'konlarda xarid qilish mumkin, lekin haykaltaroshlar ularni o'zları yasashni ep ko'radilar.

Bundan tashqari, haykaltaroshga **kronsirkul**, **shayton (uroven)**, **otves (shovun)** zarur.

Shayton bilan dastgoh holatining to'g'riliqi tekshiriladi. **Shovundan** qomat ustida ishlanganda — uning to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish uchun foydalaniladi; **kronsirkul** yordamida taxminan olin-gan o'lcham va mutanosibliklarni to'g'riliqi aniqlanadi.

Hozirgi davrda sotuvda turli o'lchamdag'i shaytonlar bor. Ularni bemalol xarid qilishingiz mumkin. Qo'l ostida juft yog' ochdan yoki metalldan yasalgan kronsirkul lozim. Uning uchlari uchli, yassi, o'rtasi qulqolgi gayka bilan biriktiriladi. **Shaytonning** uchi uchli bo'lishi kerak, chunki u ipga osiltirilganda uchi markazni ko'rsatishi kerak.

Ashyo va uskunalardan tashqari haykaltaroshga dastgoh zarur. Boshida bitta baland dastgoh kifoya, uning qopqog'i ishlayotganning ko'krak balandligida bo'lishi darkor. Bunday dastgohda kichik eskizlar, etudlar va portretlarni yasash qulay. Haykaltaroshlar yog'ochdan (60- rasm) va metalldan 3 va 4 oyoqli dastgochlarni ishlatadilar.

Katta bo'lmagan haykalni yasash uchun bir necha uskunaga ega bo'lish kerak (turnetka). Bu — byust uchun uskunalar — xomaki eskizlar va mayda haykallar uchun; yarimqomatli — yarimqomat va $\frac{3}{4}$ natura uchun; qomatli — odam bo'yи baravar qomatlar uchun dastgohlari.

Haykaltaroshning asosiy ish moslamasi hisoblangan dastgoh yog'och yoki temir quvur (\varnothing 2,5sm) oyoqlardan iborat bo'lib, dumaloq yoki to'rtburchak aylanma 30×30 sm, qalinligi 4—5 sm taxmon bilan mustahkamlanadi. Rassom haykalni yaratayotganda, hamma tomonlarini eng qulay holatda va eng foydali yorug'likda ishlab chiqish uchun, vaqt-vaqt bilan uni aylantiradi. (74- rasm.)

Byust uchun dastgohning balandligi 130 smdan — 150 smgacha (albatta haykaltarosh bo'yiga moslashtiriladi) bo'ladi. Moslama yaxshi aylanishi uchun uskuna o'qiga rezba kesilib, unga aylanib kiradigan temir quyiladi va bir tomoni taxtaga qotiriladi.

Katta bo'limgan ishlarda (byust, eskizlashda) uskunaning aylanishi shart emas. Lekin yirik ishlarni bajarishda taxmon tagiga aylanishi uchun qo'shimcha g'ildirakchalar (roliklar) o'rnatiladi. Etudni aylantirish uchun eng samarali moslama — „yulduzcha“ yoki „aylanmachalar“dir. O'q uchlariiga (asosan, besh-oltita ol-nadi) gaykalar bilan mustahkamlangan roliklar o'rnatiladi. Yaxshisi roliklarga cho'ziqroq bochkasimon (o'rtasi bo'rtgan) shakl berish afzal.

„Yulduzcha“ uchun ikkita temir halqa (qalinligi 3—5 mm) kerak. Agar temir halqa bo'lmasa, ular o'rniغا ikkita po'lat bo'lak-chasini (2 mm dan kam emas) ishlatish mumkin.

„Yulduzcha“ yo'q taqdirda krestsimon yog'och tayyorlab, ularning uchlariiga suv quvuri bo'laklari yoki sharikopodshipniklar biriktiriladi. Katta haykallar bajariladigan barcha dastgohlarga bu narsa zarur, chunki haykalga ishlatiladigan ashyoning vazni 1,5 tonnani tashkil etishi mumkin.

Dastgoh taxmoni ustiga alohida taglik taxtasini qo'ymasdan ish boshlash mumkin emas, chunki katta namlikdan uskuna taxtasi chirishi va yaroqsiz holatga kelishi mumkin. Undan tashqari, uskuna haykaltaroshga boshqa ijodiy ishlarini olib, ikkinchisini almashtirib ishlashda xizmat qiladi (61- rasmga qarang).

Ish uchun zarur bo'lgan moslamalardan biri — **glagolga** ega bo'lish kerak, u turgan qomatni yasashda juda muhim. „G“ harfiga o'xshagan, o'ta mustahkam po'lat o'zandan yasalgan, unga kalla, qo'l-oyoq, gavda torsining karkasi biriktiriladi, chunonchi o'zida butun og'irlilikni ko'taradi (61- rasm). Turli hajmdagi gavdalar uchun glagollar asarga nisbatan moslashtirib yasaladi. U mustahkam o'rnatilishi zarur.

Glagol nafaqat egilishi, balki tebranishi ham mumkin emas. Uni hech qachon aylanadigan shitga o'rnatish mumkin emas. Uni boshqa shitga shunday biriktirish kerakki, bajarilajak gavda qoq o'rtasida o'rnatilishi lozim.

Byust uchun qalin bo'limgan taxtalar mixlanib shit yasaladi; yarim qomat, ayniqsa, butun qomat uchun qalin taxtadan yasalgan shit qo'llaniladi, chunki temir karkasni va haykalni joylashtirish uchun asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Biz aylana haykaltaroshlik uchun kerakli moslama va karkaslarni ko'rib chiqdik.

Bo'rtma haykal (barelyef, gorelyef) uchun boshqa moslama va karkas talab qilinadi: dastgoh o'rniغا molbert qo'llaniladi, gorizontal tekis karkasli shit o'rniغا ramkali, ichiga sinch qoqilgan, ba'zan mix qalpog'i biroz taxtadan masofa qoldirilib qoqilishi mumkin. Bu bo'rtma uchun karkas bo'lib xizmat qiladi.

Undan tashqari aylana qomatga qo'llaniladigan uskuna natura uchun kerak, lekin u aylanadigan bo'lishi shart emas. Haykaltarosh ishlashi uchun oyog'i tagiga zinapoyacha yoki taglik zarur.

Past dastgohlar uchun yana bir qulay moslama, bu qo'shimcha buralib o'rnatiladigan oyoqlar. Ular tufayli dastgohni zarur darajaga, baland yoki past qilib o'rnatish mumkin (76- rasm).

Katta o'Ichamli haykallar maxsus jihozlangan xonalar-da — haykaltaroshlik ustaxonalarida bajariladi. Yosh haykaltarosh uy sharoitida ham ishlashi, bu uchun kichik ish joyini tashkil etishi mumkin. Ishlarni saqlash uchun maxsus taxmonlarni o'rnatish lozim.

Haykaltaroshlik bilan shug'ullanishni istagan o'quvchilar kichik sharoitlarga — joyga, ashyg'a, oddiy jihoz va asbob-uskunaga ega bo'lishi lozim — birlamchi mashg'ulotlarga kirishish, qator texnik ko'nikmalarни ishlab chiqish, ko'z va qo'lni, shuningdek, ijodiy fikr yuritishga va ko'lamda shaklni his qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xomashyolar

Lepkada haykaltaroshlar asosan loy, plastilin, sham, eglin ishlatalardilar. Bu ashylarning har biri o'zining maxsus xususiyatlariga ega bo'lib, ularidan ish sharoitiga va maqsadiga muvofiq foydalanish ko'zda tutiladi.

Ashyoning shakl va mazmun bilan aloqasi, bir asarni turli ashyo larga o'tkazish mumkinligi, haykaltaroshlik uchun ashyoni tanlash murakkab va muhim masala.

Haykaltaroshlik asarini yaratayotganda, usta uni ma'lum ashyoda faraz (tasavvur) qiladi. Ashyo o'zining sifati bilan obraz xarakteriga qandaydir jilo baxsh etadi, ya'ni „bo'yqlar va marmar fizikaviy xususiyatlari rangtasvir va haykaltaroshlik sohasidan tashqarida yotmaydi“.

Buyumlarning tabiiy ashylarini qo'llab, haykaltarosh o'zining g'oyaqligiga mos keladigan ashylarni tanlaydi: yoritiluvchan penteliy marmari o'zining sof oqligi, mustahkamligi va shu bilan birga, nozikligi bilan odam tanasini bajarishda haykaltaroshga boy imkoniyatlarni ochib beradi. Yumshoq va zinch sirlangan yarimtiniq sath o'zining fakturasi bo'yicha odam terisiga juda yaqin. Diorit, granit, bazalt, porfir parchalarga ishlov berish qiyin kechadi, monolitli mahobatli shakllarni talab etadi. Bronzada jo'shqinlik holatini yanada to'liq ko'rsata olish mumkin. U yorug'likni aks etish, konturlarni aniqligini kuchaytirish imkoniyatlariga ega. Yog'och issiqligi, turli-tuman tekstura va fakturasi bilan jalb etadi.

Loy. Haykaltaroshlikda keng tarqalgan va qulay ashyo bu — loy hisoblanadi. U juda egiluvchan, eziluvchan va ish uchun moslashgan bo'lib, mahalliy navlardan maxsus tayyorlanadi. Loyni tusi va plastik xususiyatlar bo'yicha, ya'ni yasash uchun eziluvchanligi darajasi bilan ajratish mumkin.

Loy turli rangda bo'ladi: oq, kulrang, sarg'ish, ko'kimtir, qizil, sarg'ish-yashil, to'q yashil. Sarg'ish-yashil va kulrang-yashil loylar eng yaxshilaridir. Haykaltaroshlar uni juda qadrlashadi va ko'proq foydalaniladi.

Bu loylarning makoni Sankt-Peterburgdan 18 km masofada joylashgan Pulkovo ostonasida joylashgan. Ular yer qatlamida taxminan Leningrad viloyati bo'yigacha cho'zilgan. Haykaltaroshlik uchun yer qatlamidan chuqur joylashmagan loylar yaraydi. Chuqur qatlamning yog'sizligi va qattiqligi tufayli uning tuprog'i ish uchun yaramaydi.

Loyning hamma turlari ham haykaltaroshlikka yarayvermaydi. Loy moyli va moysiz bo'ladi. Haykaltaroshlikda hech qanday qorishma qo'shilmagan elastik va yopishqoq moyli loy ishlataladi.

Lepka uchun loy quyidagicha tayyorlanadi: tuproq suvda ivitiladi. Bo'laklangan loyni tog'orachaga yoki yog'ochdan tayyorlangan maxsus yashikka solinadi. Har qatlamni suv bilan ivitib, belkurakda obdon aralashtiriladi. So'ng yana yangi qatlam solinib suvda ivitiladi. Bu jarayon yashik to'lgungacha davom ettiriladi. Undan keyin loyni katta lom bilan bir nechta joyidan tagigacha teshib chiqiladi. Paydo bo'lgan teshiklar suv bilan to'ldiriladi. Shu holatdagi massani 2—3 kunga qoldiriladi. Keyin uni yashikdan olib, katta yog'och taxmonga terib qo'yiladi va turli chiqindilar dan tozalanadi, barcha loy bo'laklari ezilib, suvi qochirilguncha urib pishitiladi. Loy batamom ezilgandan so'ng, ichki tomoni sirlangan idishga yoki sirlangan qo'rgoshin bilan o'ralgan qopqoqli maxsus moslamaga yoki haykaltarosh ustaxonasida betondan yasalgan o'raka joylashtirib, ustini ustaxona poli bo'lib xizmat qiladigan taxtalar bilan yopiladi. Bunday yashik yoki o'ralarda loy yillab, albatta, ma'lum parvarish tufayli, qurimasdan saqlanishi mumkin.

Agar ashyo kam miqdorda bo'lsa, uni sirli vannada, yashikda yoki yelim qopda ham saqlash mumkin.

Agar aralashgan qorishma juda suvli bo'lsa, uni idishdan olib taxtaga yoki kleyonkaga yoyib, suvi silqiguncha ushlab turiladi. Loy qo'lga yopishmasa, uni ishga tayyor deb hisoblasa bo'ladi. Lepka uchun mo'ljallangan loyni bochkada yoki yashikda, ustiga ho'l latta yoki kleyonka yopib ushslash mumkin. Bu loyni ish uchun yaroqli holatda saqlanishini ta'minlaydi va namligini saqladi. Ortib qolgan va kerakmas, qotgan loyni qaytadan ishlatish mumkin: ularni mayda bo'laklarga bo'lib, yana suv bilan ivitiladi.

Loyli haykal yaratilishi jarayonida loyda namlikni saqlash zarur, buning uchun unga suv sepilib, nam latta yoki yumshoq kleyonka bilan o'rak qo'yiladi.

Ish boshlashdan oldin loyning holatini tekshirib, namligi yetarli bo'lmasa, yana suvlanadi. Ish tugagandan so'ng asarni suvlab, yana kleyonka bilan o'rak qo'yiladi. Suvlash uchun suvpurkagich ishlatiladi.

Plastilin haykaltaroshlik uchun ishlatiladigan xomashyolardan biridir. U eskizlashda va model ishlarida juda zarur. Haykaltaroshlar qo'llaydigan rangli va bir tusli plastilin sotuvda bor. U juda yum-

shoq va eziluvchan, turli o'lchamda ish bajarishga mos, faqat eskiz va kichik etudlarni bajarishda qo'llaniladi. Plastilin uy sharoitida lepka qilishga qulay, chunki saqlash uchun maxsus jihoz talab etmaydi. U doim qo'llashga yaraydi.

Loy va plastilindan bajarilgan ishlarni ko'p vaqt saqlash qiyin, shuning uchun ularni gipsga o'tkazadilar — shaklga soladilar (formovka) va boshqa mustahkam ashyoda bajaradilar.

Plastilin sham (vosk) (asalari yoki mineral shamlar) va to'ldiruvchidan tashkil topgan. Plastilin turli rangda va har xil zichlikda bo'ladi. Ko'proq loyli sham, oltingugurt smolasi va yog'li sham ishlatiladi. Plastilinni qaynatish (tayyorlash) uchun maxsus, aniq nisbati yo'q, uning taxminiy retsepti mavjud. Yaxshi tozalangan va suvda ivitilgan haykaltaroshlik loy havoda eziladi, go'shtqiyamalagichdan chiqariladi. So'ngra ikkinchi ezilishida, unga oldindan suvli hammomda eritilgan tabiiy sham yoki mashina yog'i qo'shiladi. Hosil bo'lgan qorishmani (massa) yana 2—3 marta go'shtqiyamalagichdan o'tkaziladi.

Sham bilan mashina yog'i eritmasiga loy rangiga mos moybo'yoqlar qo'shiladi. Yashil Pulkovo rangli loyni chiqarish uchun ko'proq to'q yashilga biroz qora rangli bo'yoq to'g'ri keladi. Plastilin yoqimli rangda bo'ladi, agar ultramarin qo'shilsa, loy ko'kimtir tusga kiradi.

Ko'rsatilgan jarayondan keyin olingan massani ezish zarur, agar u qo'lga yopishqoq bo'lsa, shamni qayta eritib, eziluvchan va yopishqoq bo'lguncha asta-sekin plastilinga qo'shish kerak.

Agar massa qattiq bo'lib, ezilishi qiyin bo'lsa, mashina yog'ini qo'shib, go'shtqiyamalagichdan o'tkazib, ishlashga loyiq holatga kelungacha ishlov berish lozim. Plastilinni quruq loydan ham tayyorlash mumkin, buning uchun juda ham maydalab elash kerak. Uni tayyorlash uslubi shunday. Bu plastilinning kamchiligi shundaki, elanmagan loyning mayda kukunlari baribir mayda nuqtalar ko'rinishida bo'ladi.

Haykaltarosh-modelyerlar bo'rtmalarni qora grifel taxmonda pushti sham bilan yasaganlar. Qora zamin orqali yupqa lepkalar qatlami shulalanib tasvir ifodali ko'rindi (77- rasm).

Rang

Haykaltaroshlik plastik ifodasi orqali ta'sir ko'rsatganligi sababli, hajmni yo'nish yoki yasash (lepka) yordamida yaratadi, rassom ko'p hollarda ashyoning mavjud ranglaridan foydalanadi, gohida esa rang ham qo'llaydi.

Ish joyini tashkil qilish

Haykalni yasash uchun o'quvxonasi yoki 5—6 metr balandlikda, tepadan yoritilgan bo'lishi lozim.

Bo'lajak asar yaratish uchun eng avval rassom eskizlar, qoralama ishlarni bajaradi. Eskizlarda u mavzuning eng to'g'ri yechimini izlaydi, bo'lajak asar asarning o'rnatiladigan joyi, ashyoning maqsadga muvofiqligi, asarning yorqin, hayotiy va haqqoniyligini ifodalanishi xayolini chulg'ab oladi. Bir vaqtning o'zida rassom lepka eskizi bilan birgalikda naturadan qomat, kalla, drapirovkalarni chizadi, etudlarni yasaydi.

Bu murakkab mehnat rassomga asar yaratish uchun zarur, tomoshabinni qiziqtirish va hayajonlantirish lozim, uni hayotda va san'atda go'zallikni ko'rishga o'rgatish, uning badiiy didini va ijodiy fikrini rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlari foydali o'tishi uchun ularni muntazam va doimiy ravishda olib borish lozim. Vazifalarni sinchkovlik va bosqichma-bosqich bajarish darkor. Haykaltaroshlik bo'yicha boshlang'ich mashg'ulotlarni egallamasdan, murakkab vazifalarga o'tishga shoshilmaslik kerak. Boshlang'ich mashg'ulotlarda taklif etilgan, yaxshi ishlab chiqilgan va mukammal egallangan bilimlar, bosqichma-bosqich va keyinchalik odam kallasi, qomatiga va kompozitsiya yaratish ishiga asosli o'tishga imkon beradi.

Ish vaqtida natura va etud imkon qadar bir xil yoritilishi kerak. Kunduzgi, yuqori yoritilish yaxshi hisoblanadi, bunda buyum shakli yanada aniq ajraladi. Bunday sharoitlarda yorug'lik naturada va ishda bir maromda taqsimlanadi.

Haykalni nafaqat kun yorug'ligida, balki kechki yorug'lik yordamida ham ishslash mumkin. Bunda nur taratuvchi vosita (lampa) haykaltaroshning orqasida, boshdan yuqori joylashishi va yorug'lik ko'zga tushmasligi lozim.

Haykalni yorug'likka qarshi turib bajarish mumkin emas, chunki bu holatda faqat buyumning qiyofasi ko'rindi, uning shakli esa qabul qilinmaydi.

Boshidan shaklni qo'l bilan yasashga o'rganish lozim. Qo'lda ishslash haykaltaroshga zarur sezish va rivojlantirishga imkon yaratadi va to'g'ri usullarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Mashg'ulotlarni avval oddiy geometrik jismlarni: kub, prizma, silindr, piramida, konuslarni yasashdan boshlash maqsadga muvofiq. Bu amaliyotda tekislik, hajm, ko'lam va shakl haqida tushunchaga ega bo'lishga imkon beradi, chunki geometrik jismlar ideal ifodalangan, aniq va ravon shaklga ega. Bundan tashqari, geometrik jismlarni yasash ancha murakkab, tabiiy shakllarni to'g'ri tushunishga keyinchalik yordam beradi.

O'rganish jarayonida, eng boshida zarur ko'nikmalarni ishlab chiqish, haykaltaroshlik texnikasiga rioya qilish kerak. Geometrik jismlarning shakli soddaligiga qaramasdan ularni ko'chirish, taxtada urib chiqish, lineykada yo'nib chiqish emas, balki yasash kerak.

Taklif etilayotgan mashqlar, naturadan kichkina yoki kattaroq bajarish foydali, bu boshdan „ko'z bilan“ mutanosiblikni aniq yetkazishni o'rgatish, ya'ni buyum qismlari o'rtasidagi munosabatni va butunga qismlarning o'zaro nisbati. Buyum o'Ichamini o'Ihash orqali ko'r-ko'rona ko'chirish yaramaydi, chunki haykaltarosh o'zida „ko'zo'Icham“ (glazomer) aniqligini rivojlantirishi lozim.

Naturani va ishni bitta balandlikda o'rnatish zarur. Ishni baland dastgohga, naturani — dastgoh yoniga yoki qiya qilib uning ortiga o'rnatish kerak. Bu bir vaqtning o'zida nigoh bilan ilg'ashga va taqqoslashga imkon beradi.

Naturani va ishni yasash jarayonida uni doim aylantirish, bu ishni har tomondan ko'rish, yasash va tekshirish uchun kerak.

Vazifani bajarishga kirishganda, dastgohning aylanadigan qopqog'i ustiga taxta qo'yish kerak. Bu taxtaga qalin qatlam loy (2—3 sm) qo'yiladi va zichlashtiriladi. Uning sathi tekislanaadi. Bu qatlam loy — ish uchun plint — asos bo'lib xizmat qiladi (62-rasm). Qopqoq ustiga loyni taxlashni tavsiya etmaymiz, chunki dastgoh nam loydan va doim suvlanayotgan ishdan buziladi.



Savol va topshiriqlar

1. Haykaltaroshlik ashyolarini sanab o'ting.
2. Mikelanjejo qaysi ashyo bilan ijod qilgan?
3. Loy haykaltaroshlikning qaysi xiliga tegishli?
4. Plastilin xususiyatlari qanday?
5. Marmar sifatini ta'riflang.
6. Mevali rozetka nimani tasvirlaydi?
7. Gipsli rozetkalarni yasash bosqichlarini ayтиб bering.

Gulli rozetka yasash

Gulli rozetka yasash vazifasi o'simlik naqshini gipsli modellardan (hajmli va bo'rtmali rozetka) va naturadan o'simliklarning lepkasini o'z ichiga oladi. Bunda o'quvchilar bo'rtma, uning hajmli shakli xususiyatlari, berilgan o'lchamda tasvirni joylashtirish tartiblari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Bo'rtma naqshli bezaklarni geometrik jismlar, ro'zg'or buyumlari, meva-sabzavot va boshqa ko'rinishlarni ko'pgina me'moriy yodgorliklarida va zamonaviy inshootlarda uchratishimiz mumkin.

Na'muna sifatida gulli rozetkani olib naturadan nusxa ko'chirishni tavsiya etamiz. Mazkur vazifa o'simlik (barg, shox, gullar) olamini yasash bilan birgalikda, tekislikdagi bo'rtmaning tasviri haqida birlamchi ma'lumotni beradi (63- rasm).

Ishga kirishishdan oldin obyektni yaxshilab ko'zdan kechirish, o'rganish, tushunish kerak, buyumning hajmli shaklini bir tekislikdan ikkinchisiga o'tuvchi moyillik sifatida qabul qilish lozim, bu shaklni mexanik tarzda ko'chirish emas, balki yasash lozim.

Vazifani bajarishdan oldin tanlagan narsangizni eng e'tiborli tomonlarini o'rganib chiqing. O'simlik, gul — u qanday xarakterga ega, boshqa narsalardan nimasi bilan farq qiladi, tuzilishi qanday, shularni o'rgansangiz o'zingiz uchun tasavvurga ega bo'lasiz. Rozetkangizning nisbatini, masshtabini, umumiyl shaklini va uning xususiyatlarini aniqlang. So'ng ishga kirishing.

Ishga kirishishdan oldin gipsli rozetkadan ancha kattaroq o'lchamda maxsus taxta tayyorlab, chetini ramka bilan qoqib chiqasiz, bu loyni qurib qolishidan saqlaydi va uni taxtada ushlaydi. Undan keyin taxtani suvlab (loy uning ustida yaxshiroq ushlanishi uchun), uning ustiga loydan plint yotqiziladi. Loyli taxta vertikal

holatda, gipsli na'muna esa unga nisbatan chapga joylashtiriladi. Ish ham, na'muna ham, bir tekislikda, ishlayotganning nigohi taxtaning o'rtasida va unga nisbatan perpendikular bo'lishi lozim. Ishni tik turib bajarish kerak, bu ko'proq orqaga o'tishga va masofada ishni tekshirishga imkon beradi.

Loy plint ustiga stek uchi bilan naqshning umumiy chegaralari, detallarsiz chizilib chiqiladi (63- a, rasm). Uni loy zaminning gipsli asliga muvofiq joylashtirish lozim. Chizma tasvirni sirkul bilan tekshirish mumkin.

Plint ustiga gulning umumiy shaklida loy quyiladi. Loyni zarur hajmga qaraganda kamroq olish lozim, chunki ish jarayonida yetishmaydigan hajm to'ldirib boriladi.

Tasvirning o'lchamlarini (balandligi, qalinligi) aniqlagandan so'ng, umumiy chegaralarda gulning xususiyatlarini belgilab chiqing. Demak, gulning umumiy shakli bir necha qismidan iborat ekanligini tasavvur etish mumkin: gulkosa (yarimaylana), band (chiziq) va beshqirrali barg. Undan keyin asosiy shaklni ta'riflovchi yirik sat-hlarni, so'ng ikkinchi darajali, ancha kichik, ingichka, detallah-tirilgan bo'laklarni topasiz. Yodda tuting, aylana shakli boshidan gul ekanligi bilinib turishi lozim (63- b, rasm).

Keyinchalik, lepkani yasash jarayonida, loyni sathga bosqichma-bosqich to'ldirganingizda, hajmning to'laligini, novdalarning egiluvchanligini va shaklni ifodalovchi aniqlikka erishish kerak. Ish jarayonida doim bo'rtmani aniqlang va chizma tasvirni to'g'riligini tekshiring (63- d, rasm).

Mazkur vazifa to'g'ri bajarilganligiga ishonch hosil qilish uchun ish yakunida uning masshtabi va nisbatlarining to'g'riligini kronsirkul bilan tekshirib chiqing. Ish jarayonida o'lchov asbobi bilan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Naturani va ishni har tomondan ko'rish, yasash va tekshirish uchun doim aylantiring.

Mevali rozetka yasash

Sodda gul rozetkasini yasash bilan tanishganingizdan so'ng, ancha murakkabroq va qiziqarli bo'lgan mevali rozetka yasashga o'tish mumkin.

Ushbu vazifani bajarishdan avval hajmi bo'yicha har xil bo'lgan, bir necha meva-sabzavot: olma, nok, qalampir, behi, lavlagi mahsulotlarini naturadan ancha kattaroq (2—3 marta) qilib yasab ko'rish foydali.

Bu vazifani ishslash jarayoni yuqorida ta'kidlanganidek, xuddi shunday bajariladi va oldingisidan uncha farq qilmaydi.

Murakkab meva rozetkasini yasashga kirishishdan oldin, original namunani diqqat bilan ko'zdan kechirish: uning tuzilishini tushunish, uning shakl va bo'rtmalaridagi o'zgarishlarni belgilashingiz kerak. Qaysi meva ekanligini aniqlab tasvirning chegaralarini loyga tushiring. Tasvir bo'yicha loy qatlami bo'rtmaga muvofiq yopishtiriladi. Yopishtirish jarayonida chizma tasvir, nisbat va bo'rtmani aniqlash zarur. Yopishtirish yirik qismlarni belgilash bilan yakunlanadi, so'ng esa qismlarni aniqlashga o'tish mumkin, bunda uning yaxlitligini unutmasligimiz kerak.

Bu mashqda original o'lchamning chizma tasvirda ham, bo'rtmada ham, mayda bo'laklarni sinchiklab ishlab chiqishda ham, aniq muvofiqligiga erishing. Boshqacha aytganda, originaldan olingen rozetkadan nusxa ko'chirishga harakat qiling, mustahkamlash uchun murakkab vazifalarni bajarganingizda, olgan ko'nikmalaringiz keyinchalik kerak bo'ladi.

Odam kallasi elementlari: og'iz, burun, ko'z, qulolqlar

Odam kallasini yasashdan oldin, uning har bir qismini o'rganib chiqish lozim. O'rganish uchun Mikelanjeloning ajoyib marmar „David“ haykalining bosh qismlari gipsli elementlari xizmat qiladi.

Kallaning asosiy qismlari: ko'z, og'iz, burun, qulolqdan iborat. Ularning har biri o'zining murakkab tuzilishiga ega. Biroq diqqat bilan razm solsa va yuz qismlarini umumlashtirsa, ularni oddiy geometrik jismlarga taqqoslasa bo'ladi, bu ishni yengillashtiradi.

Ishni boshlash jarayoni yuqorida ta'kidlanganidek, xuddi shunday bajariladi va oldingilaridan farq qilmaydi.

Burun

Burun suyagi — yuzning siljimas qismi. Burun kemirchagi, burun kemirchagi qanotlari, burun kemirchagi darpardasi o'zgaruvchan qismlardan tuzilgan (64- rasm).

Burun shakllari xilma-xil: uzun, qisqa, keng, to'g'ri, qirra burun va shu kabilar, biroq ularning asosida prizma yotadi. Bu shakllarni aniqlash uchun uni oldidan, yonidan va pastdan ko'rib chiqish lozim. Oldindan qaraganda, uch asosiy shaklni ajratish mumkin: keng, o'rta va ingichka. Burunga yondan qaraganda: to'g'ri, qirra burun, uchqur, notejis kabilarni belgilash mumkin, bundan tashqari burun baland, o'rta va kichik bo'ladi. Burunga pastdan qaraganda uning rivojlanish darajasini kuzatishimiz mumkin, ayrim holda burun katta yoki oldinga chiqqan. Bundan tashqari, burun kovaklari turli shaklda: aylana, oval, uzayganligi belgilandi. Shunday qilib, burunlarning individual xususiyatlari juda katta.

Burunni birlamchi chegaralarini belgilaganda, yuzning markaziy chizig'i qanshar va burun asosi o'rtasidan kesib o'tishini yodda tutish kerak.

Uning shakli to'rt sathdan iborat bo'lib, prizma bilan taqqoslash mumkin. Oldingi qismi ancha olg'a chiqqan, ikki yon qismi pastga qarab burun kovagi kengaygan (65- rasm).

Gipsli modelga qarab, shakl hajmi loy bilan to'ldirilib chiqiladi. Burunni yasaganda uning jonli shaklini ko'rsatishga harakat qilish kerak. Burun shaklini yasaganda darrov xarakterli xususiyatlari belgilanadi.

Burunni yasash paytida tomonlar o'lchami, tuzilishiga e'tibor berish, boshqa qismlar moyilligini diqqat bilan kuzatish lozim.

Ko'z — yuzning harakatlanuvchi qismi hisoblanadi.

Ko'zga ishlov berish jarayoni yuqorida ta'kidlanganidek boshlanadi.

Ishni boshlaganda, ko'zning chegarasini belgilab, sinchkovlik bilan uning xarakteriga, joylashishiga, tuzilishiga va uning shakliga diqqatingizni qarating. Ko'zning anatomik shakli — bu shar, ko'z kosasiga o'rnatilgan, lekin biz yarimsharni ko'ramiz. Ko'zni to'g'ri tasvirlash uchun natura qanday holatda turganini aniqlash muhim (66- rasm).

Ko'zni yasashga kirishganda, ko'z kosasini belgilab, ko'z yarimshari o'lchamini aniqlab, asos chizig'i o'tkaziladi. Modelga

qarab ko'zning hajmini loy yopishtirish orqali yasab chiqing. Uning xusutsiyatlari alohida ahamiyat bering, chunki u boshqa qismlarga qaraganda o'zgacha.

Gipsli modelga qarab, chimirilgan qosh obyektning eng baland sathi hisoblanadi. Bo'rtgan qovoq ko'z kosasiga tushib, cheti ichkariga kirgan. Nigoh chetga qaratilgan. Ko'z qorachig'i ichkariga chuqurlashtirilgan. Burun qirrasi ko'z shapog'i bilan kesishmoqda.

Bu vazifa oldingilari singari bajariladi.

Lab — og'iz bo'shlig'ini tepa va pastki lablar qamragan, harakatlanuvchi va odam mimika mushaklarining faol ishtirot etuvchi qismlaridan (r.). Tepa va pastki lablar kesishib og'iz burchagini hosil qiladi. Tepa labning o'rtasi qalinlashgan va pastga, ichkariga qarab yo'naltirilgan. Pastki lab esa tepadan pastga qarab olg'a bo'rtib chiqqan. Lablar o'z tuzilishi va o'Ichami bo'yicha xilma-xil (67- rasm).

Gipsli modelni sinchiklab, o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish lozim. Og'iz chizig'i turli xil bo'ladi, shuning uchun uning xarakterini belgilab ko'rsatish lozim. Lab chegaralarini chizishdan boshlash kerak emas, avval sinchiklab ko'rib chiqib va ularning turli tekisliklarga bo'lingan xarakterli shaklini plintga o'tkazish kerak.

Labni yasash paytida, uning qiyofasini, og'iz kesmasi kattaligini, uning qiyaligini, shuningdek labning bittasi oldinga chiqqanligini belgilash kerak. Shundan keyingina, labning shaklini to'g'ri yasash mumkin.

Quloq — murakkab anatomik tuzilishga ega, harakatlanmaydigan yuz qismi — chig'anoqdan iborat (68- rasm). Quloq chig'anog'i bir necha murakkab sathlardan tashkil topgan — bo'rtiq (darvin), jingala, jingalaning teskarisi, quloq chig'anog'ining kovagi, bo'g'otcha qarshisidagi qism, dolka, yuzaki eshitish kovagi va bo'g'otcha (quloq chig'anog'ining oldingi bo'rtmasi). Quloq chig'anog'ining shakli turli odamlarda turlicha. Quloqlar turli o'Ichovlarda: katta, o'rta va kichik bo'ladi.

Quloqni yasashni boshlashdan avval uning oval asosini to'g'ri belgilash zarur. Aksariyat u burun asosiga nisbatan parallel o'tadi. So'ng oval nisbatlarini, quloqning umumiy shaklini va bo'laklarning

tuzilishini, monandligini va ularni umumiy shakli bilan taqqoslash kerak.

Yuz qismlarini yasagandan so'ng, David maskasini yashashga o'tish lozim. Bu o'zlashtirilgan vazifani mustahkamlashga va ulaming o'zaro aloqasini tahlil qilishga yordam beradi.

Odam kallasini yasash, shakllar xilma-xilligini o'rganadigan murakkab va qiziqarli obyekt hisoblanadi.

Odamning to'liq qomatini yasash uchun karkas tayyorlash

Ish uchun dastgoh joyiga qo'yilgandan va sozlangandan, o'lchash uchun mashtab tayyorlangandan keyin va muhimi natura ma'lum darajada o'rganilgan va tushunilgandan so'ng karkas ustida ish boshlash mumkin.

Qomat uchun karkasni tuzilishi murakkab emas (69- rasm). Natural o'lchamning yarmidan keladigan qomat uchun karkas tasvirlangan. Barcha karkaslar shu yo'l bilan bajariladi. Qomat karkasning asosi bo'lgan — glagol taxmonga o'rnatilgan. Glagolga torsni ushlab turuvchi ancha qalin (4—6 mm) sim qotiriladi. U uchburchak shaklida, asosi tepaga qaratilgan. Uchi pastga qaratilgan sim uchlari gorizontal holatga keltililib, glagolning gorizontal qismiga biriktiriladi. Sirtmoq nafaqat gorizontal, shuningdek, vertikal kesmaga ham, vertikal o'q atrofida aylanishidan saqlash uchun biriktirilib qotiriladi. Kalla uchun sterjen gorizontal yelkaga ham, vertikal glagol uchiga ham, tors halqasiga ham mahkam biriktiriladi. Birlashtiruvchi simni ortiqcha o'ramang. Bosh va bo'yin uchun sterjen butun qomatga yetishi lozim.

Oyoq uchun simni uzunroq olish kerak. U tovon bilan tuga-masdan, balki plintdan oshishi kerak. Oyoq sterjenining pastki uchi loy bilan qotiriladi, zarurat tug'ilganda uni boshqa joyga siljitim mumkin.

Shu yo'l bilan qo'l uchlari sterjenini mustahkamlash mumkin. Uni egib, loy yopishtirgandan keyin tagida qolib ketadi. Qo'l uchun simni shunday biriktirish kerakki, u aylanishi mumkin bo'lmasin, mustahkam qotirlisin. 88- rasmda ko'rsatilganidek bajarish noto'g'ri, simni kerakli harakatga keltinganimizda sim

siljib aylanishi mumkin. Qo'l uchiga panjalar uchun bir necha qavati o'rab ajratilgan simlar chiqariladi. Agar qo'l tanaga tegib tursa, unda buning hojati yo'q.

Ayrim hollarda, qomatning turishiga (poza) qarab, karkas glagoli odatdagidek orqada emas, aksincha, yonidan yoki boldirning orqasida o'rnatiladi.

Karkas uchun yumshoq sim olinadi. Qattiq sim bo'lsa, u avval kuydiriladi, keyin ishlatiladi. Agar qalin sim yo'q bo'lsa, ingichkasini ikki-uch qavat qilib o'rab ishlatiladi. Shunday sim tanlanishi kerakki, loyni yopishtirganda, og'irligidan qiyshayib ketmasligi kerak. Shu bilan birga, harakatni o'zgartirish zarur bo'lsa, u oson qayishishi mumkin bo'lsin. Karkas qismlari sim bilan o'raladi.

Agar haykal loydan bajarilsa, karkas qismlarini alumin simda yasash va o'rash yaramaydi, chunki vaqt o'tishi va tabiatning ta'sirida yemiriladi. Karkasni ko'taruvchi asosni, loyni ushslash uchun (90-rasm krestchalar, ilonchalar) ko'rsatilgan oddiy moslama bilan to'ldirish lozim. Busiz ish vaqtida loy parchalanib, tushib ketishi mumkin. Bu krestchalar ko'p loy ishlatiladigan joylarga o'raladi, ilonchalar qo'l va oyoq karkaslariga o'raladi.

Kichik qomatlar uchun karkaslar deyarli shunday yoki undan ham soddaroq bajariladi. Loy qancha kam bo'lsa, u shuncha yengil va qulash ehtimoli kam. Plastilin bilan kichik hajmdagi (50—60 sm) gavdalarni yasash uchun krestchalar, ilonchalar shart emas.

Katta va natural hajmdagi qomatlar uchun karkaslar yuqorida ta'kidlangan uslubda bajariladi. Muhimi ularni mustahkam o'rnatish lozim. Juda katta hajmlarni yog'och bo'laklari bilan to'ldirish mumkin. Krestchalar va ilonchalarni pastki chetiga yaqin o'rnatishga harakat qilinadi. Katta loy bo'lagi o'zining tayanchi tagida yotgani ma'qul.

Odamning to'liq qomatini yasash

Odam qomatini yasashni bilish, naturani o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi. Shuning uchun birinchi navbatda yalang'och modelning etudi ustida ish olib boriladi.

Lepkani avval odam qomatini yasashdan boshlash nihoyatda noto'g'ri. Ayol qomatini yasashda haykaltarosh oldida murakkab

vazifalar turadi, yuqorida ta'kidlangan bosqichlarni bajarmay turib: geometrik jismlarni, oddiy buyumlarni va ularning moyilligini yasash; tabiat shakllarini yasash; yuz qismlarini yasash, odam kallasimi yoki byusti bo'ladi, qat'i nazar odam qomatini yasash tartiblari, usullari, vositalari boshqa ashylarni ishlatalish bilan uncha farq qilmaydi. Bu bosqichlarning barchasi o'ta muhim.

Bu vazifalarni ishlab chiqish uchun, ularni chizma tasvir mashg'ulotlari bilan to'ldirib borish foydali. Lepka bilan bir vaqtning o'zida ushbu postanovkalardan chizma tasvirlarni bajarish kerak, parallel ravishda plastik anatomiyanı, odam qomatining tuzilishini va har bir harakat mexanizmini o'rganish, naturasiz tananing turli bo'laklarini, uning ichki tuzilishidan kelib chiqib, turli holatda va harakatda yasashni bilish kerak.

Ish boshlangan jarayonda, loyli qomatning shakllari hali belgilanmaganda, o'zingiz uchun bo'lajak gavdani ilgaridan „ko'ra olishingiz“ lozim, bamisol u ish dastgohida turgandek, sizdan boshqa u hech kimga ko'rinxmasin.

Agar haykaltarosh, bo'lajak gavdani dastgohida „ko'rsa“, demak, uning oldiga qo'ygan maqsadi bor va uning barcha harakati yagona mazmunga qaratilgan, har bir mo'ljallanayotgan gavda qismlari o'z joyida o'rashib, butun hamohanglikka erishadi.

Qomat haqida tasavvur yaxlit bo'lishi lozim. Bu degani, modelni bir butunligicha, bir vaqtning o'zida pastini ham, yuqorisini ham, oldidan ham, orqadan ham, ko'lamda ham tasavvur eta olishni bilish kerak.

O'rganuvchi qomat butunligi haqida taassurotida eng muhim bo'lgan, eng umumiy plastik xususiyatlarni: umumiy yo'nalishlarni, o'ta yirik nisbatlarni boshidan o'zlashtirishi zarur.

Ishni keng ko'lamda olib borish lozim. Modelni har tomonlama ko'rib chiqish, qancha ashyo ketishini mo'ljallah, yaxlit qomat obrazini ko'rish lozim.

Shaklni to'ldirishga kirishganda, bitta joyda katta ahamiyat berilsa, qomatning yaxlitligi haqidagi fikr yo'qoladi va zarur maqsadga erishishdan va yaxlitlikdan mahrum bo'lasiz. Maqsad – tezroq xayoliy obrazni hammasini butun yaxlitligini ushlab olish, uni qotirib, unga aniqlik keltirish va uning keyingi jarayon uchun ish bilan ta'minlash.

Haykaltaroshlikda shoshqaloqlik yaramaydi. Eng muhim asosiy maqsad sari diqqatni qaratish lozim.

Modelga qarab, undagi muhim qirralarni aniqlashga va ishda muntazam bajariladigan jarayonlarni belgilab chiqishga o'rganish kerak. Bu „muntazamlik bosqichlari“ odam gavdasi tuzilishida yaqqol berilgan. Ishda bu bosqichlarning ketma-ketligiga rioya qilish lozim. Asosiy yirik shakllarni chiqarmasdan, mayda bo'laklarga o'tish mumkin emas. Agar shakl joyiga to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, keyinchalik bo'laklar o'z-o'zidan joyiga tushadi.

Gavda hajmini to'ldirish uchun zarur bo'lgan hamma loyni karkasga muntazamlikni va tartibni saqlab, asta-sekin yopishtirish zarur. Naturaning ichki konstruksiyalar tuzilishi unsurlarini, 96-rasmida ko'rsatilgan muntazamlikda bajarilishi tavsiya etiladi.

Qomatni chiqarishning eng muhim tomoni — kalla tepasini va ko'krak qafasining tepasini loy bilan belgilash, asos tekisligida qadam chegaralarini o'rnatish. Bu deyarli karkasni tayyorlash vaqtida qaytarilayotgan jarayonlardan. Plint sathi gorizontal tekislikni tashkil etadi. Oyoq ostidagi qo'pol notekisliklar gavda nisbatini va bo'yini ko'rishga doim xalaqit beradi.

Ayrim paytda o'lhashga kirishish kerak. Uzoq muddatli ishda busiz iloji yo'q. Lekin qiziqarli va nozik ishga kirishishdan oldin, asos to'g'ri bo'lishi lozim.

Asosiy ish tushunchasiga muhim mutanosibliklar kiradi. Ular boshidan to'g'ri bo'lishi shart, bunga aqlan, qat'iy erishish zarur. Asosiy mutanosiblik munosabatlardan tashqari, sirkul bilan o'lhash shart emas. O'lhash yordamida topilgan va aniqlangan zarur nuqtani qotirish, keyinchalik atrofini ko'rganda o'sha nuqtaga tayanish uchun lozim.

Shuningdek, vaqt-i-vaqti bilan qomat turishini shovun bilan tekshirish darkor: karkas to'g'ri turibdimi, qomat yonga og'maganmi, dastgoh aylanish natijasida uning tekisligi o'zgarib, shu bilan birga, haykal ham qo'zg'almaganmikin.

Gavdaning muntazam aniqlanishi yoki bosqichli konstruksiyaning to'latilishi — bu o'tkinchi jarayon, o'z vaqtida gavdaning hamma yog'ini hajm bilan to'ldirish, keyingi bosqichga joy ajratishi lozim. To'la hajmli gavda — bu ish boshlashning yaqin maqsadi —

bosqichli konstruksiyaning to'latilishi esa — bu faqat unga qilinadigan yo'l. Shuning uchun bu yo'lda zaruratidan ortiq, uzoq to'xtalish kerak emas. Bajarilgan tayyorlov ishlaridan foydalanib, yakuniy to'liq hajmni yig'ishga kirishish lozim.

Butun hajmning umumiy to'g'ri shaklini darov ko'rsatish uchun, u qaysi umumiy shaklga ega bo'llishini oldindan bilish kerak, buning uchun ma'lum vaqt ajratib, hamma tomonlarini ko'rib chiqish, fikrlash va bu hajmni to'liq hamma umumiy shakllarini yodda qoldirish lozim. Yakuniy loy bo'laklarini quyish oldidan, hajm haqida yakuniy tushunchaga ega bo'llish zarur. O'z tasavvuringizda ko'p narsani, shu bilan birga, bularning hammasini bir butun qilib qamrab olishingiz zarur. Bu vazifani bajarishda o'z mehnatingizni osonlashtirishingiz uchun, boshida shakllarni umumlashtirish, soddalashtirish vositalarini keng qo'llash kerak. Shunda oldingizda turgan maqsad aytarli murakkab bo'lmaydi va har kim tomonidan bajarilishi mumkin. Qat'yan ko'pgina mayda va nozik ishlardan voz kechish zarur. Aks holda bu ishlar yaratilayotgan asarning umumiy holati buzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Gavdani tashkil etgan turli yirik hajmlarda asosiy qirralarni ko'rishimiz mumkin. Bu naturaning o'zida mavjud eng yirik sodda satqlar bo'lib, o'zida ko'pgina mayda — shaklga bo'ysungan bo'laklarni birlashtiradi. Bu umumlashtirish, naturaning o'zida ko'rsatilgan. Bu qirralarni to'g'ri ko'rsata olish, eng muhimmi esa bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtirish, yirik shaklni bajarishda boshlang'ich jarayon uchun juda ko'p foya keltiradi. Yirik plan tushunchasi qismalarning yaxlitlikka bo'ysunishiga erishishga yordam beradi.

Nihoyat qomat to'ldirilgan. Uni o'z oldimizda bir butun ko'rishimiz va model bilan taqqoslashimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, san'atda ham, boshqa ijodiy sohalar kabi, doimiy astoydil mehnat katta ahamiyatga ega. Faqat ongli bajarilgan ko'pgina ishlar tufayli, odamni bilish mumkin, uning beqiyos xilma-xil shaxsiy farqlarisiz odam gavdasi ustida ish olib borish mumkin emas. Nafaqat odam tanasi shakllari tasviriga erkin ega bo'llish, balki ular yordamida insonning ichki olamini ko'rsata bilish — mana shuni haykal tarosh bajarishni o'rganishi lozim.



Savol va topshiriqlar

1. Kalla qismlari gipsli modellari qaysi asarga tegishli?
2. Odam boshini qanday yasash lozim?
3. Odam qomatini o'rganishda qaysi manbalarga murojaat qilinadi?
4. Qomat xususiyatlarini ta'riflang.
5. Odam haykali qanday yasaladi?
6. Karkas nima uchun kerak?
7. O'zbekiston haykaltaroshligi qachon vujudga kelgan.
8. O'zbek haykaltaroshlaridan kimlarni bilasiz?
9. I.Jabborovning asarlarini sanab chiqing.
10. D.Ro'ziboyev qanday janrda ijod qiladi?
11. A.Hatamov asarlarini sanab chiqing.
12. Jasorat haykali muallifi kim?



1- rasm. Villendorfdagi ayol statuetkasi. Yuqori paleolit.



2- rasm. Vayrochan Buddasining Lunmen g'or ibodatxonasidagi ulkan statuyasi. 672—676 y.y.



3- rasm. Gudeya portreti. Ilon podshosi xotini bilan. Ajanta. 6- asr.



4- rasm. Dur-Sharrukindagi Sargon II saroyidagi Shedu.



Ov manzarasi. Nineviyadagi Ashshurbani pal saroyining bo'rtmalari. Mil. avv. VII asr o'rtalari. London. Britaniya muzeyi.



5- rasm. O'layotgan sher. Nineviyadagi Ashshurbani pal saroyining bo'rtmalari. Mil. avv. VII asr o'rtalari. London. Britaniya muzeyi.



a)



b)

6- rasm a) Miron. „Diskobol“.

Miloddan avvalgi 450 yil.

b) Poliklet. Dorifor. Mil. avv.

V asr o'rtalari.



7- rasm. Fidiy. „Afina
haykalchasi“. Miloddan
avvalgi 447— 432- yillar.



8- rasm. Parfenon Barelyefi.



9- rasm. Lisi pp. Nemey sheri bilan olishayotgan Gerakl.



10- rasm. Gomer.
Qadimgi yunon
haykalidan nusha.



11- rasm. Karakalla
portreti. 211—217- yillar.



12- rasm. Prima Portadagi Avgust atatuyasi. Mil. avv. I- asr boshi.



13- rasm. Rimdagidagi chavandoz Mark Avrentiy statuyasi. 170- yil.



14- rasm. Rimdagi Trayan ustuni, bo'rtma parchasi.
Milodning 2- asr boshi.



15- rasm. Shartr sobori. G'arbiy tarv peshtoqidagi gorelyef.
1135—1155- yillar.



16- rasm. Naumburg soboridagi haykallar guruhi Eskexard va Uta. Bo'rtma parchasi. 13- asr o'rtasi.



17- rasm. Reym soboridagi haykallar guruhi. Mariya bilan Yelizavetta uchrashuvি. Bo'rtma parchasi. 1230- yil.



18- rasm. Mikelandjelo. David, marmar. Afrodita Milosskaya.



19- rasm. Donatello. Paduyedagi chavandoz kondotyer Gattametat haykali. 1447—1453- yillar.



Donatello. Xyshhabar. „Kovalkanti mehrobi“ deb atalgan
1430 tosh terrakota.



20- rasm. Lorentso Ghiberti. Samson bilan saks malikasining uchrashuvi.
„Jannat darvozasi“ florentsiya baptisteriyasining fragmenti.
1425—1452- yillar.



Noma'lum haykaltarosh.
Gerakl. XVIII asr oxiri.
Oldidan ko'rinishi.



Noma'lum haykaltarosh.
Gerakl. XVIII asr oxiri.
Orgadan ko'rinishi.



21- rasm. Belveder torsı.



22- rasm.

Bernini. David. 1623- yil.

Mikelandjelo. Tors. Bartolomeo pitta madonnasi. 1504. Marmar.



23- rasm. Avliyo evezanining jazavasi. 1645—1652- yillar. Parcha.



24- rasm. F. Ryud. 1792- yildagi qo'zg'alonchilarning chiqishlari.
(Marselyeza). Parijdagi g'alaba ravog'idagi bo'rtma. 1833—1836- yillar.



25- rasm. Gudon.
Volter portreti.



26- rasm. Gudon.
Volter statuyasi.



27- rasm. O. Roden.
V. Gyugo portreti.



28- rasm. O. Roden. Fikrlovchi.
1890- yil. Bronza. / Yeva.



29- rasm. Burdel. Kamon
otayotgan Gerakl.



30- rasm.
Mayol Pomona.



31- rasm. F. Kremer.
Byxenvald maxbuslari
qo'zgolonchilariga
o'rnatilgan haykal.
1952—1958- yillar.



32- rasm. V. Aaltonen.
Tinchlik. 1950—1952-
yillar, granit.



O'rta Osiyo antik haykallari.

Ayrtom frizidagi musiqachi
ayol. Mil.avv. II—I-asr.

33- rasm.



Verrokkyu. Venetsiyadagi chavandoz kondotyer Kolleoni statuyasi. 1479—1488- yillar.




Donatello. David.
Bronza. 1430—1432-
yillar.

34- rasm.



35- rasm. I. Jabborov. Amir Temur haykallari. 1991- yil.



36- rasm. D. Ryabichev. Yu. Gagarin
haykali. Bronza.



37- rasm. Ya. Shapiro.
Kosmonavt V. Jonibekov
haykali. Kosmonavtlar
hiyoboni kompleksi.



38- rasm. E. Falkone.
Cankt-Peterburgdagı
Petr-I haykali.
1765—1782- y.y.



39- rasm. I. P. Martos.
Moskvadagi Minon va
Pojarskiyga yodgorlik.
1818- yil.



F. I. Shubin. Pavel I portreti. Marmar. 1798- yil.



M. M. Antokolskiy. Turgenyev portreti. Tuslangan gips.

40- rasm.



41- rasm. M. M. Antokolskiy.
Ivan Groznyi. 1875- yil.



42- rasm. E. A. Lansere. Zaparozhli
jangdan so'ng. 1873- yil.



43- rasm. I. D. Shadr.
Xarsangtosh proletariat quroli.
Bronza. 1927- yil.



44- rasm. D. Ro'ziboyev.
Farishta. 1991- yil.



45- rasm. Mayda plastika.



F. F. Shedrin va I. I. Terebenyev. Admiralteystvo binosidagi haykallar.



N. V. Tomskiy. Sevastopoldagi admiral Nahimovga o'rnatilgan yodgorlik bo'rtmasi. 1959. Bronza.

46- rasm.



47- rasm. V. I. Muxina. Ishchi va kolxozchi ayol. 1937- yil.



48- rasm. P. P. Sokolov. „Qiz singan xum bilan“.



F. I. Shubin. Chernishev portreti. 1770- yil. Marmar.



Yig'ichi ayollar. Memfisdagi relyef. Mil.avv. XIV asr.

49- rasm.



50- rasm. Friz bo'lagi. Parfenona. Qizlar.



51- rasm. Pergan mehrobi.



52- rasm. Afina va Gigant. Alkioney. Pergam Altaridagi bo'rtma friz.
Mil.avv. 180- yil.



53- rasm. Fayoztepadagi „Budda uchligi“
mehrobi bo'rtmasi.



54- rasm. F. P. Tolstoy. „Merkuriy Penelopanining
kalliklari sharpalarini do'zaxga yetaklamoqda“.
Marmar. 1816- yil.



E. V. Vruchetich. Sholoxov portreti.
1958- yil.



M. A. Komo. E. Falkone portreti.
XVIII asr.
55- rasm.



56- rasm.



57- rasm.



58- rasm-



a





b



d




59- rasm.



60- rasm.



62- rasm. Plint.



61- rasm.



Gulli rozetkalar.



a

b


d

Gulli rozetkani bajarish muntazamligi.

63- rasm.



64- rasm. Burun.



65- rasm. Burunning konstruktiv tuzilishi.




66- rasm. Ko'z.



67- rasm. Lab.

68- rasm. Quloq.



69- rasm. Odam boshini yasash muntazamligi.



V.I. Muxina. Non. Tuslangan gips. 1939- yil.



Agesandr. Polidor. Afinodor. Laokon. Mil.avv. 40 y. yaqin



70- rasm. Notiq statuyasi.
(Avl Metel atalmish.).
Mil.avv. I asr boshi.



71- rasm. Seriyali ayol
portreti. II asr.



72- rasm. Lyutsiy Setsiliya
portreti.



73- *rasm.* Menye. Antverpen.





74- rasm. Komeya Gonzaga. Mil.avv.
III asrning birinchi yarmi.



REPRODUKSIYALAR RO'YXATI

- 1- rasm. Villendorfdagi ayol statuetkasi. Yuqori paleolit.
- 2- rasm. Vayrochan Buddasining Lunmen g'or ibodatxonasidagi ulkan statuyasi. 672—676 y.y.
- 3- rasm. Gudeya portreti. Ilon podshosi xotini bilan. Ajanta. 6- asr.
- 4- rasm. Dur-Sharrukindagi Sargon II saroyidagi Shedu.
- 5- rasm. Ov manzarasi. Nineviyadagi Ashshurbani pal saroyining bo'rtmalari. Mil.avv. VII asr o'rtalari. London. Britaniya muzeyi.
O'layotgan sher. Nineviyadagi Ashshurbani pal saroyining bo'rtmalari. Mil.avv. VII asr o'rtalari. London. Britaniya muzeyi.
- 6- rasm. Miron „Diskobol“. Miloddan avvalgi 450 yil.
Poliklet. Dorifor. Mil.avv. V asr o'rtalari.
- 7- rasm. Fidiy. „Afina haykalchasi“. Miloddan avvalgi 447—432- yillar.
- 8- rasm. Parfenon Barelyefi.
- 9- rasm. Lissipp. Nemey sheri bilan olishayotgan Gerakl.
- 10- rasm. Gomer. Qadimgi yunon haykalidan nusha. Mil.avv. 2—1- asr.
- 11- rasm. Karakalla portreti. 211—217- yillar.
- 12- rasm. Prima Portadagi Avgust atatuyasi. Mil.avv. 1- asr boshi.
- 13- rasm. Rimdag'i chavandoz Mark Avrentiy statuyasi. 170- yil.
- 14- rasm. Rimdag'i Trayan ustuni, bo'rtma parchasi. Milodning 2- asr boshi.
- 15- rasm. Shartr sobori. G'arbiy tarv peshtoqidagi gorelyef. 1135 yillar.
- 16- rasm. Naumburg soboridagi haykallar guruhi. Eskexard va Uta. Bo'rtma parchasi. 13- asr o'rtasi.
- 17- rasm. Reym soboridagi haykallar guruhi. Mariya bilan Yelizavetta uchrashuvi. Bo'rtma parchasi. 1230- yil.
- 18- rasm. Mikelandjelo. David, marmar. Afrodita Milosskaya.
- 19- rasm. Donatello. Paduyedagi chavandoz kondotyer Gattametat haykali. 1447—1453- yillar.
- 20- rasm. Donatello. Xyshhabar. „Kovalkanti mehrob“ deb atalgan 1430 tosh terrakota.
Lorentso Giberti. Samson bilan saks malikasining uchrashuvi. „Jannat darvozasi“ florentsiya baptisteriyasining fragmenti. 1425—1452- yillar.

- 21- rasm. Noma'lum haykaltarosh. Gerakl. XVIII asr oxiri. Oldidan ko'rinishi.
Noma'lum haykaltarosh. Gerakl. XVIII asr oxiri. Orqadan ko'rinishi.
Belveder torsi.
- 22- rasm. Bernini. David. 1623- yil.
Mikelandjelo. Tors. Bartolomeo pitta madonnasi. 1504.
Marmar.
- 23- rasm. Avliyo Terezaning jazavasi. 1645—1652- yillar. Parcha.
- 24- rasm. F. Ryud. 1792- yildagi qo'zg'alonchilarning chiqishlari.
(Marselyeza). Parijdagi g'alaba ravog'idagi bo'rtma. 1833—
1836- yillar.
- 25- rasm. Gudon. Volter portreti.
- 26- rasm. Gudon. Volter statuyasi.
- 27- rasm. O. Roden. V. Gyugo portreti.
- 28- rasm. O. Roden. Fikrllovchi. 1890- yil. Bronza. / Yeva.
- 29- rasm. Burdel. Kamon otayotgan Gerakl.
- 30- rasm. Mayol Pomona.
- 31- rasm. F. Kremer. Byxenvald maxbuslari qo'zgolonchilariga
o'rnatilgan haykal. 1952—1958- yillar.
- 32- rasm. V. Aaltonen. Tinchlik. 1950—1952- yillar, granit.
- 33- rasm. O'rta Osiyo antik haykallari.
Aytorm frizidagi musiqachi ayol. Mil. avv. II—I-asr.
- 34- rasm. Verrokkyu. Venetsiyadagi chavandoz kondotyer Kolleoni
statuyasi. 1479—1488- yillar.
Donatello. David. Bronza. 1430—1432- yillar.
- 35- rasm. I. Jabborov. Amir Temur haykali. 1991- yil.
- 36- rasm. D. Ryabichev. Yu. Gagarin haykali. Bronza.
- 37- rasm. Ya. Shapiro. Kosmonavt V. Jonibekov haykali. Kosmonavtlar
hiyoboni kompleksi.
- 38- rasm. E. Falkone. Cankt-Peterburgdagi Petr-I haykali. 1765—
1782- y.y.
- 39- rasm. I. P. Martos. Moskvadagi Minon va Pojarskiya yodgorlik.
1818- yil.
- 40- rasm. F. I. Shubin. Pavel I portreti. Marmar. 1798- yil.
M. M. Antokolskiy. Turgenyev portreti. Tuslangan gips.
- 41- rasm. M. M. Antokolskiy. Ivan Grozniy. 1875- yil.
- 42- rasm. E. A. Lansere. Zaparovli jangdan so'ng. 1873- yil.
- 43- rasm. I. D. Shadr. Xarsangtosh proletariat quroli. Bronza.
1927- yil.
- 44- rasm. D. Ro'ziboyev. Farishta. 1991- yil.

- 45- rasm. Mayda plastika.
- 46- rasm. F. F. Shedrin va I. I. Terebenyev. Admiralteystvo binosidagi haykallar.
N. V. Tomskiy. Sevastopoldagi admiral Nahimovga o'matilgan yodgorlik bo'rtmasi. 1959. Bronza.
- 47- rasm. V. I. Muxina. Ishchi va kolxozchi ayol. 1937- yil.
- 48- rasm. P. P. Sokolov. „Qiz singan xum bilan“.
- 49- rasm. F. I. Shubin. Chernishev portreti. 1770- yil. Marmar.
Yig'ichi ayollar. Memfisdagi relyef. Mil.avv. XIV asr.
- 50- rasm. Friz bo'lagi. Parfenona. Qizlar.
- 51- rasm. Pergan mehrobi.
- 52- rasm. Afina va Gigant. Alkioney. Pergam Altaridagi bo'rtma friz.
Mil.avv. 180- yil.
- 53- rasm. Fayoztepadagi „Budda uchligi“ mehrobi bo'rtmasi.
- 54- rasm. F. P. Tolstoy. „Merkuriy Penelopaning kalliklari sharpalarini do'zaxga yetaklamoqda“. Marmar. 1816- yil.
- 55- rasm. E. V. Vruchetich. Sholoxov portreti. 1958- yil.
M. A. Komo. E. Falkone portreti. XVIII asr.
- 56- rasm.
- 57- rasm.
- 58- rasm.
- 59- rasm.
- 60- rasm.
- 61- rasm.
- 62- rasm. Plint.
- 63- rasm. Gulli rozetkani bajarish muntazamligi.
Gulli rozetkalar
- 64- rasm. Burun.
- 65- rasm. Burunning konstruktiv tuzilishi.
- 66- rasm. Ko'z.
- 67- rasm. Lab.
- 68- rasm. Quloq.
- 69- rasm. Odam boshini yasash muntazamligi.
- 70- rasm. Notiq statuyasi. (Avl Metel atalmish.). Mil.avv. I asr boshi.
- 71- rasm. Seriyali ayol portreti. II asr.
- 72- rasm. Lyutsiy Setsiliya portreti.
- 73- rasm. Menye. Antverpen.
- 74- rasm. Komeya Gonzaga. Mil.avv. III asrning birinchi yarmi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Барчаи Е.** Анатомия человека.
2. **Большаков А.И.** Декоративная лепка. Л-М. „Стройиздат“.
3. **Воронова О.** Искусство скульптуры. Изд. „Знание“. 1981.
4. **Ерманская В.В.** Основы понимания скульптуры. Изд. „Искусство“. М. 1964.
5. **Ерманская В.В.** Что такое искусство. Изд. „Изобразительное искусство“ 1977.
6. **Крестовский И.** Скульптура.
7. **Мелюков Т.** Скульптурно-лепные работы.
8. **Лактери Э.** Лепка фигуры человека.
9. **Однаралов Н.** Скульптура и скульптурные материалы.
10. **Песаревский Л.Г.** Лепка головы,
11. **Соколов В.Н.** Лепка фигуры. М. Изд. Акад. художеств.
12. **Zamonaviy O'zbekiston san'ati.** Toshkent.
13. Школа изобразительного искусства. Изд. Академия художеств. СССР, 1960, вып I, II, III, IV, V.
14. История зарубежного искусства. М. Изобразительное искусство. 1984.

MUNDARIJA

Kirish	3
Haykaltaroshlik haqida umumiy ma'lumotlar	4
Haykaltaroshlik turlari	22
Haykaltaroshlik janrlari	36
Sujet va obrazlar	37
Haykaltaroshlik fanida ishlataladigan o'quv qurollari	39
Xomashyolar	42
Rang	46
Ish joyini tashkil qilish.	46
Gulli rozetka yasash	48
Mevali rozetka yasash	49
Odam kallasi elementlari: og'iz, burun, ko'z, quloq	50
Odamning to'liq qomatini yasash uchun karkas tayyorlash	53
Odamning to'liq qomatini yasash	54
Reproduksiyalar ro'yxati	99
Foydalanilgan adabiyotlar	102

1800e

I-80

Islomov, Feruz.

Haykaltaroshlik: Kasb-hunar kollejlari
o'quvchilari uchun o'quv qo'l./ F.Islomov. —
Toshkent: O'qituvchi, 2007. —104 b.

BBK 85.13ya722

FERUZ ISLOMOV

HAYKALTAROSHLIK

*Kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun
o'quv qo'llanma*

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2007

Muharrir *R. Mirholiqov*

Badiiy muharrir *Sh. Jo'rarev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*

Musahhih *M. Ibrohimova*

2007- yil 28- sentyabrda andoza nushasidan chop etishga ruhsat berildi.
Bichimi 60x90^{1/16}. Kegli 11 shponli. „Tayms“ harfida terilib, ofset usulida
chop etildi. Sharqli b. t. 6,5. Nashr. t. 6,5. 6566 nuxsada bosildi. Buyurtma № 130.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent. Yunusobod
dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 07—108—07.